

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK
TA'MINLASH KAFEDRASI**



**VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR O'RTASIDA
HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH
PROFILAKTIKASI**

(Uslubiy tavsiyanoma)

Uslubiy tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Uslubiy kengashida ma’qullangan, 2024-yil 25-sentyabr kunidagi 01-son bayonnomasi.

Voyaga yetmagan shaxslar o‘rtasida huquqbazarliklarni oldini olish profilaktikasi bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu uslubiy tavsiyanoma oliy harbiy muassasalarining doktorant, ilmiy xodimlari, tinglovchi, talabalari va kursantlariga shuningdek, pedagog-psixologlarga yoshlar huquqbazarliklarining oldini olish bo‘yicha mutasaddi xodimlar hamda keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Tuzuvchi:

R.M.Maxmudov

- Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

I.Ismoilov

Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi professori, yuridik fanlari doktori, professor

D.Mamatkulov

Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni profilaktikasiga bog‘ishlangan uslubiy tavsiyanoma bugungi kundagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni profilaktikasi bola vaqtini behuda va mazmunsiz o‘tkazsa qanday oqibatlarga olib kelishi va maktabga borishdan bo‘yin tovlaganda, chekishga, ichishga, giyohvandlikka berilganda, ekstramezim ta’siriga tushib qolganda, terrorchilik oqimlariga kirib qolganda, eng asosiysi qarovsiz nazoratsiz qolganda nimalar bo‘lishini yoritib berishga harakat qilgan muallif.

Uslubiy tavsiyanoma o‘zining mazmunga ko‘ra to‘qqizta mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, mavzular mantiqan bir-biri bilan bog‘langan, bir-birini mazmunini boyitadi. Uslubiy tavsiyanomani voyaga yetmaganlar o‘rtasida yakka tartibda profilaktik tadbirlar va umumiyl tartibda profilaklik tadbirlarni olib borish orqali samaradorlikka erishiladi degan fikrni yana bir marotaba asoslab berishga harakat qilingan.

Uslubiy tavsiyanomada voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirishining metodi talablari ochib berilgan. Uslubiy tavsiyanomani yozishda muallif bolalarni ehtiyojlarini qondirish, bola bilan muloqot qilish etikasini yoritib bergen.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni profilaktikasiga bag‘ishlangan. Uslubiy tavsiyanoma pedagogik yo‘nalishda ilk bor yozilayotganligi sababli, ba’zi bir kamchiliklardan xoli emas deb hisoblaymiz. Ushbu uslubiy tavsiyanoma barcha balog‘at yoshiga yetgan shaxslar bilan ishlovchi mutaxassislarga mo‘ljallangan. Ushbu uslubiy tavsiyanomani boyitish va takomillashtirish uchun taklif va tavsiyalar berilsa o‘z minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

I. BALOG‘AT YOSHIGA YETMAGAN YOSHLAR BILAN YAKKA TARTIBDA PROFILAKTIK ISHLARNI TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Balog‘at yoshiga yetmagan yoshlar doimo davlatimiz rahbarining e’tiborida bo‘lib, “Yoshlar bizning kelajagimiz” degan fikrlarni ilgari suradi. Respublikamiz aholisining 64% ni yoshlar tashkil etadi va huquqbuzarliklarni oldini olishda ularning bandligi asosiy muammo hisoblanadi. Huquqbuzarliklarning oldini olish bir yoki bir nechta tarbiya sub’ektlarining ob’ekti hisoblanib, ushbu huquqbuzarliklarni olidini olishda kompleks yondashuvlarni talab etadi. Profilaktik tadbirlarni keng miqiyosda olib borishda Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari xodimlarining hamkorligi asosiy vosita hisoblanadi. Profilaktik tadbirlarni bugungi kunda tashkil etilgan, yo‘lga qo‘yilgan maxalla yettiligi asosiy tarbiya sub’ektlari hisoblanishadi.

Pedagog olimlar huquqbuzarlarni oldini olish uni jazolashdan ko‘ra, afzalligini aytishgan. Sharl de Monteskyo “Qonunlar ruhi haqida”gi asarida “Yaxshi qonunchi jinoyat uchun jazo berishdan kora huquqbuzarliklarning oldini olish haqida ko‘proq qayg‘urardi. U jazolashga emas balki odamlar axloqini o‘zgartirishga harakat qiladi”¹ deydi.

Huquqbuzorliklarning oldini olish, bugungi kunda va har doimgidek ham eng muhim va samarali, shuning bilan birga

¹ Монтескье Ш. Избранные произведения. – М., 1955, Б. 231.

insonparvar yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Huquqbazarliklarning oldini olish va shu maqsadda tadqiqotlar olib borish huquqbazarliklar profilaktikasi muammosi doirasiga kirsada, huquqbazarlikning oldini olish ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan uzviy bog‘liq ekanligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Shaxsning boshqa shaxs yoki davlat o‘rtasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, o‘z mohiyatiga ko‘ra huquqbazarlikning oldini olishdagi eng muhim omillardir. Huquqbazarlikni keltirib chiqaruvchi salbiy xatti-harakatlarga qarshi kurash olib borishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyat yo‘nalishlarini aniq bilishi muhimdir.

Ch.Bekkariyaning “huquqbazarlikni oldini olish rivojlangan jamiyatda haqiqiy yurispredensiyadir”² degan qarashlari kasbiy pedagogikaga bevosita taalluqlidir. Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar huquqbazarligining oldini olishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyati muayyan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi hamda ularni



hamkorligi yo‘liga qo‘yiladi. O‘zbekistonda balog‘at yoshiga

² М.Беккария. О преступлениях и наказаниях. 1889. (<https://www.books.google.co.uz> 17.08.2020).

yetmagan shaxslar huquqbazarligining oldini olish O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi³ (2014), “Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi⁴ (2010), “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi⁵ (2008), “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi⁶ (2000), “Ekstremizmga qarshi Kurash to‘g‘risida”gi⁷ (2018), “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi⁸ (2008), “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi⁹ (2016), “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”¹⁰ (2017) va shu kabi qonunlar hamda - boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boriladi.



³ O‘zbekiston Respublikasining "Hukuqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi 2014-yil 14-maydagi qonuni. <http://lex.uz>.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida"gi 2010-yil 29-sentyabrdagi qonuni. <http://lex.uz>.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi 2008-yil 17-apreldagi qonuni. <http://lex.uz>.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"gi 2000-yil 15-dekabrdagi qonuni. <http://lex.uz>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi 2018-yil 30-iyuldagli qonuni. <http://lex.uz>.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to‘xrisida"gi 2008-yil 7-yanvardagi qonuni. <http://lex.uz>.

⁹ O‘zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oida davlat siyosati to‘g‘risida"gi 2016-yil 14-sentyabrdagi qonuni. <http://lex.uz>.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himo qilish to‘g‘risida"gi 2017-yil 14-maydagi qonuni. <http://lex.uz>

Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar huquqbuzarligining oldini olish siyosati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti tomonidan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Ichki ishlar organlari, Prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Adliya, Davlat bojxona xizmati, Davlat soliq xizmati, mehnat, ta’limni davlat tomonidan boshqarish, davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va huquqbuzarlikka qarshi kurashish bo‘yicha idoralalararo komissiyalar hamda balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar ishlari bo‘yicha komissiyalar, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari esa bu sohadagi davlat siyosatini bevosita amaliyatga tadbiq etadilar.

Professor I.Ismailov “balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi — davlat hokimiyati organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari hamda fuqarolik jamiyatni institutlarining



ijtimoiy jihatdan havfli ahvolda bo‘lgan balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar va oilalar, ularning huquqbazarliklarga jalb etuvchi shaxslarni aniqlash, ular tamonidan sodir etayotgan huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini bartarf etish, shuningdek ular yashayotgan va ta’lim olayotgan joylarda ijtimoiy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan tarbiya, ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy-huquqiy nazorat vositalari orqali profilaktik ta’sir choralarini qo‘llashdan iborat davlat siyosati darajasida amalga oshiriladigan alohida faoliyat, shuningdek “balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida



nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi - balog‘atga yetmagan shaxslar tamonidan qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy-xavfli qilmishlar sodir etilishini taqazo etuvchi sabab va sharoitlarni keltirib chiqaruvchi, oziqlantiruvchi, jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida uning bo‘lishini taqozo etuvchi hodisa, voqeа, jarayonlarni

kamaytirish, zararsizlantirish, cheklash va bartaraf etish bo‘yicha davlat siyosatini belgilash va uni amalga oshirish hamda takomillashtirishga qaratilgan kompleksi ijtimoiy-huquqiy jarayon¹¹” deb hisoblaydi.



G.M.Minkovskiy “Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar huquqbuzarligining barvaqt profilaktikasi davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining jinoyat sodir etguniga qadar ularda g‘ayriijtimoiy va dezadaptiv hulqatvorning paydo bo‘lishiga yordamlashuvchi sharoitni bartaraf etishga qaratilgan, shaxs g‘ayrijtimoiy hulq-atvorini to‘g‘rilash va unda ijobiy hulq-atvorni

¹¹Ismailov I. Balog‘atga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi Kriminologiya. Maxsus kism: Darslik { Mualliflar jamoasi. – T.: 2015. – B. 15-16.

shakllantirish, uning hayotida taxmin qilinishi mumkin bo‘lgan kriminogen elementlarning vujudga kelish imkoniyati (motivatsiya)ni bartaraf etish faoliyati^{12”} deb ta’rif beradi.

Bu tarifda balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar ning huquqbazarlik sodir etishgacha bo‘lgan g‘ayriijtimoiy va dezadaptiv hulq-atvorning sabablarini bartaraf etilishi e’tiboridan chetda qogan. Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar huquqbazarligining oldini olishning turlari haqida sohaning mutaxassis olimlari, amaliyot xodimlari tomonidan xozirgi kunga qadar yagona to‘xtamga kelinmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 –sentyabrdagi “Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunda “balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi – balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar ning nazoratsizligi, qarowsizligig. Ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imko beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktikasi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huqukiy, tibbiy va boshqa chora tadbirlar tizimi^{13”} deb ta’riflanib, unda balog‘at

¹²Миньковский Г.М., Тузов А.П. Профилактика правонарушений среди несовершеннолетних. — К.; Политиздатъ Украина, 1987. — С 86.

¹³ O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010 yil 29 sentyabrdagi Qonun // URL: <http://lex.uz>.

yoshiga-yetmagan shaxslar huquqbazarliklarining faqatgina yakka tartibdagi profilaktikasi ajratib ko‘rsatilgan.

Shuningdek, balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar huquqbazarligining oldini olishga oid milliy qonunchiligidizning rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni (2014) qabul qilinganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda “huquqbazarliklar profilaktikasi - huquq-targ‘ibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbazarliklarni aniqlash, u arga barham berish, shuningdek huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbazarliklar umumiy, maxsus, yakka Tas edagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi” deb ta’riflanib, huquqbazarliklarning umumiy, maxsus yakka tartibdagi va viktimalologik profilaktikasi¹⁴ kabi turlari nazarda tutilgan.

Taqqoslaydigan bo‘lsak, Qozog‘iston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (29.04.2010) qonunida “huquqbazarliklar profilaktikasi - huquqbazarliklar profilaktikasi sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan, huquqbazarliklarning sodir etilishiga imkon bergen sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish yo‘li bilan

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2014 yil 14 maydagi Qonun I URL: [htto://lex.uz](http://lex.uz).

huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlashga yo‘naltirilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy chora-tadbirlar kompleksi” (1-m)¹⁵ deb ta’riflanib, huquqbazarliklar profilaktikasi choralariga: umumiyl, yakka tartibdagi (individual) va maxsusuga ajratilgan; Rossiya Federatsiyasining “Rossiya Federatsiyasida huquqbazarliklar profilaktikasi tizimining asoslari to‘g‘risida”gi (23.06.2016 y) qonunida “huquqbazarliklar profilaktikasi — huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek g‘ayriijtimoiy hulq-atvor yoki huquqbazarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaxslarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, huquqiy tashkiliy, informatsion va boshqa xarakterdagi chora-tadbirlar majmui“ (2-m)¹⁶; Belarus Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida”gi (04.01.2014y) qonunida “huquqbazarliklar profilaktikasi va huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa hujjatlariga muvofiq, huquqbazarliklar profilaktikasi sub’ektlarining huquqbazarliklarning umumiyl va yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini qo‘llash bo‘yicha faoliyati” (1-

¹⁵ Закон Республики Казахстан 29 апреля 2010 г. №271-IV ЗРК «О профилактике правонарушений» Сборник законов о профилактике правонарушений стран Содружества Независимых Государств / Сост.; А.С. Турсунов, И.Ю.Фазилов, С.Б.Хўжақулов. -Т., 2018. – С. 37.

¹⁶ Федеральный Закон Российской Федерации 23 июня 2016 г. Х2182-ФЗ. "Об основах системы профилактики правонарушений В Российской Федерации" И Сборник законов о профилактике правонарушений стран Содружества Независимых Государств { Сост.: А.С.Турсунов, И.Ю.Фазилов, С.Б.Хўжакулов. Т., 2018. С. 55.

m)¹⁷, deb ta’riflanib yuqoridagi Qozog‘iston Respublikasining qonunidan farqli ravishda huquqbazarliklar profilaktikasining umumiyl va yakka tartibdagi (individual) turlariga ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bolag‘atga yetmaganlarning huquqbazarligi oldini olishning turlarini O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014) hamda “Balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2010) qonunlari doirasida, mazkur sohaga oid izlanishlarni hamda amaliyot xodimlarining amaliyotda huquqbazarlikning oldini olishda qo‘llab kelayotgan balog‘at yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning umumiyl, maxsus, yakka tartibdagi va vektomalogik profilaktikasi kabi turlarga ajratib, ularni tadqiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

S.B.Xo‘jaqulov huquqbazarliklarning umumiyl profilaktikasi yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borilib, “Huquqbazarliklarning umumiyl profilaktikasi munosiblari tomonidan amalga oshiriladigan, g‘ayri tabiiy xulq-atvor yoki huquqbazarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka, huquqbazarliklarning sodir etish

¹⁷ Закон Республике Беларусь от 4 января 2014г. 42122-3 «Об основах деятельности по профилактике правонарушений» Сборник законов о профилактике правонарушений стран Содружества Независимых Государств / Сост.: А.С.Турсунов, И.Ю.Фазилов, С.Б.Хўжакулов. Т., 2018. - С.14.

sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish, (zararlantirish)ga yo‘naltirilgan huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy-pedagogik va boshqa (iqtisodiy tarbiyaviy, tashkiliy informatsion, maxsus) chora-tadbirlar mazmunini o‘z ichiga qamrab olgan faoliyat” deb ta’rif bergan. Huquqbazarliklarning umumiyligi profilaktikasi bir vaqtning o‘zida yuz, ming hattoki millionlab insonlarga profilaktik ta’sir ko‘rsatishi imkonini mavjudligi, kam kuch va mablag‘ sarflanishi vaqt tejamkorligiga erishishi profilaktik chora-tadbirlariga kompleks yondashilishi, huquqbazarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishi talab qilish kabi o‘ziga xos afzalliliklarga egaligi¹⁸ taqiqlangan.

Huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi bo‘yicha M.J.Eshnazarov “Huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi bu - uni bevosita amalga oshiruvchi sub’ektlarning ayrim turdagisi huquqbazarliklar yoki g‘ayriijtimoiy xulq-atvor profilaktikasiga, bu turdagisi huquqbazarliklar yoki g‘ayriijtimoiy hulq-atvorni sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi huquqbazarliklarni sodir etishga moyil bo‘lgan huquqbazarlik sodir etgan, viktimligik yuqori va huquqbazarlikdan jabrlangan shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek jamoat xavfsizligi va

¹⁸ Xo‘jaqulov S.B Huquqbazarliklar umumiyligi profilaktikasini takomillashtirish: Monografiya /Mas’ul muxarrir yu.f.d., dos. I.Yu.Fazilov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. -186 b. B 52.

jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatar va tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir choratadbirlar tizimidir”¹⁹ deydi.

Huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi ayrim turdagи huquqbazarliklar, shaxslar toifalari ko‘payganda yoki jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatar va tahdidlar yuzaga kelganida amalga oshiriladi.

II. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGIGA MUVOFIQ YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKA ISHINI TASHRIL ETISH YUZASIDAN TAVSIYALAR

Yakka tartibdagi profilaktika ishi quyidagi voyaga yetmaganlarga nisbatan olib boriladi:

- nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;
- g‘ayriijtimoiy xatti-harakat sodir etganlar;
- ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarida saqlanayotganlar;
- ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotganlar;

¹⁹ Eshnazarov M.J. “Xuquqbazarliklar maxsus profilaktikasi” tushunchasining mazmuni to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi IIV Axborotnomasi. — 2019. - Ne 1. B. 49-50

- ma'muriy huquqbazarliklar sodir etganlar;
- amnistiya akti asosida yoki qilmish yoxud shaxs ijtimoiy xavflilik hususiyatini yuqotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi yoxud yarashilganligi munosabati bilan, shuningdek voyaga yetmaganni jazo qo'llamasdan turib tuzatish mumkin deb e'tirof etilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganlar;
- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'limganlar yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'limgan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'limganlar;
- jinoyat sodir etganlikda ayblanib, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'limgan ehtiyyot chorasi qo'llanganlar;
 - majburlov choralari qo'llangan holda jinoiy jazodan ozod qilinganlar;
- jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganlar, shaxs ijtimoiy xavflilik hususiyatini yukotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan yoxud amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilinganlar;
- hukmnning ijrosi kechiktirilganlar;

- shartli hukm qilinganlar, ahloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган boshqa jazo turlariga hukm qilinganlar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlar yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelganlar;
- ruhiy kasallik tufayli sog‘liqni saqlash muassasalarida hisobda turganlar va huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo‘lganlar.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarga nisbatan ham olib boriladi.



Yuqorida nazarda tutilgan holatlar, agar quyidagi hujjatlarda qayd etilgan bo‘lsa, yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish uchun asos bo‘ladi:

- voyaga yetmaganning yoxud uning ota-onasi yoki ota-onasi o‘rnini bosuvchi shaxslarning voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar vakolatiga kiramigan

masalalar yuzasidan o‘ziga yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi arizasida;

- sudning hukmi yoki ajrimida;
- voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning yoki ichki ishlar organi boshlig‘ining qarorida;
- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi muassasalarga voyaga yetmaganlarni joylashtirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarda;
- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar- ning profilaktikasini amalga oshiruvchi organ yoki muassasa rahbari shikoyatlar, arizalar yoki boshqa xabarlarni tekshirish natijalari bo‘yicha tasdiqlagan xulosada.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi ijtimoiy va boshqa yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan muddatlarda, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligiga, huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon bergen sabablar va shart-sharoitlar bartaraf qilinguniga yoki voyaga yetmaganlar o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar yuzaga kelguniga qadar olib boriladi.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilishini tashkil etish. Ichki ishlar organlari ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini uning shaxsi va yon-atrofidagilarning o‘ziga xos hususiyatlarini, sodir etilgan huquqbazarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-



harakatlarning hususiyatini, oilaviy tarbiya sharoitlarini hisobga olgan holda olib boradi. Ushbu holatlar voyaga yetmagan, uning ota-

onasi yoki ota-onasi o‘rnini bosuvchi shaxslar, boshqa shaxslar bilan profilaktika suhbatlari o‘tkazish, voyaga yetmaganni uning yashash, o‘qish (ish) joyiga borib ko‘rish, tavsiflovchi materiallarni o‘rganish davomida aniqlanadi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida:

- voyaga yetmaganning turmush tarzi, aloqalari va niyati aniqlanadi;
- voyaga yetmaganga huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oqibatlari tushuntiriladi;

- voyaga yetmaganning huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishi sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishga doyr chora-tadbirlar ko‘riladi;

-voyaga yetmaganni huquqbazarliklar yoki boshqa gayriijtimoiy xatti-xarakatlarni sodir qilishga jalb etayotgan shaxslar aniqlanadi va ularni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga doyr chora- tadbirlar kuriladi;

- voyaga yetmaganga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslar jalb etiladi;

- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar- ning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro xamkorlikda voyaga yetmaganni saqlash, tarbiyalash, unta ta’lim berish, uning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida:



- oiladagi muxitni sog‘lomlashtirishga, ota-oni yoki ota-oni o‘rnini bosuvchi shaxslarning bolalarga salbiy ta’sir

ko‘rsatishini bartaraf etishga doyr tadbirlar amalga oshiriladi;

- ota-onan yoki ota-onan o‘rnini bosuvchi shaxslarga voyaga yetmaganlarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta’sir qo‘rsatganlik;

- yoxud ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘lganlik oqibatlari tushuntiriladi;

- oilani yashash joyiga borib qo‘rish, tavsiflovchi materiallarni o‘rganish, sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari, ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari vakillari, boshqa shaxslar bilan suhbatlar o‘tkazish orqali ota-onan yoki ota-onan o‘rnini bosuvchi shaxslarning turmush tarzi hamda niyati aniqlanadi;

- ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslar jalb etiladi;

- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlikda voyaga yetmaganlarni saqlash, tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi;

- voyaga yetmaganlarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin

tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shavqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda takliflar kiritiladi.

O'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotgan voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqdar bilan ta'minlanadi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlanayotgan voyaga yetmaganla belgilangan tartibda quyidagi huquqlar bilan ta'minlanadi:

- ota-onasini yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslarni voyaga yetmaganlar mazkur muassasalarga olib kelinganligi yoki joylashtirilganligi to'g'risida xabardor qilish;

- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning qarorlari va mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi organlarga, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga, prokuratura organlariga yoki sudga shikoyat qilish;

- odamning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaydigan insoniy muomalada bo'lish;
- cheklanmagan miqdorda telefonda so'zlashuvlar, boshqa aloqa vositalari orqali muloqotlar hamda uchrashuvlar vositasida oilasi bilan aloqada bo'lish, posilkalar, banderollar, yo'qlovlar olish, xat va telegrammalar olish hamda jo'natish;
- belgilangan normalar bo'yicha bepul ovqat, kiyim-kechak, poyabzal va ashyoviy ta'minotning boshqa buyumlarini olish¹.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda uning qay darajadagi yoki ko'rinishdagi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda ekanligiga qarab ishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ushbu voyaga yetmaganning yakka tartibdagi profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi subektlardan mavjud holatni inobatga olib o'ziga xos ravishda ish olib borishni, bolaga tasir ko'rsatishni talab etadi.

III. BOLA VAQTINI BEHUDA VA MAZMUNSIZ O'TKAZAYOTGANDA

**Ota-oni yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaning
bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida:**

- bolani doimiy nazoratda tutib, o‘kish va ishdan bo‘sh vaqtlarnda qanday mashg‘ulotlar bilan mashg‘ul bo‘lishi, bu vaqtlarni kimlar bilan o‘tkazishini bilib boradi;
- birinchi navbatda o‘zi yoki zarur deb hisoblansa, pedagog yoki mutaxassis psixolog yordamida bolaning qiziqishi, qobiliyati va iste’dodini aniqlaydi;
- qiziqishni, qobiliyati va iste’dodiga qarab, bolani mактабдаги, мактабдан ташқари маданият муассасаларидаги ва милисиya тayanch punktlari negizida tashkil etilgan turli xil to‘garaklar, sport mashg‘ulotlari hamda kichik va o‘rta biznes shohobchalariga kasb o‘rganishga jalb qiladi;
- yozgi ta’til vaqtida bolani lager va oromgoxlarga yuborish orqali ularning ijtimoiy foydali mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishini ta’minlaydi.

**Bola vaqtni bexuda va mazmunsiz o‘tkazishiga
quyidagilar sabab bo‘lishi mumknn:**

- a) bolada o‘kish, mexnat, kasb, umuman olganda, ijtimoiy foydali biror narsaga qiziqishning yuqdigi;
- b) ota-onaning bolani nazoratsiz, qarovsiz qoldirishi;

- v) ota-onaning bolaga befarqligi natijasida uning kun tartibini qiziqarli tashkil qilmasligi;
- g) ota-onaning haddan tashqari mexnat faoliyati bilan bandligi, ularning bola tarbiyasiga vaqt ajrata olmasligi;
- d) ota-onaning bolaga haddan ziyod mexr ko‘yishi natijasida keragidan ortiq ishonishi;
- v) oila va maktabda bolaning ijtimoiy foydali mashg‘ulotlarga, jumladan to‘garaklarga jalb qilinmasligi;
- j) o‘qituvchilarining o‘quvchilarga uy vazifalarini bermasligi va berilgan uy vazifalrining bajarilganligini nazorat qilmasligi va boshq.

Yuqorida qo‘rsatilgan yunalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bola bo‘sh vaqtini behuda va mazmunsiz o‘tkazishda davom etsa yoki ota-ona yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslarning qo‘rsatilgan chora-tadbirlarni yakka o‘zlari amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi va maktab ma’muriyatiga yordam berishni so‘rab murojaat qilinadi.



Ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, maktab ma’muriyati bilan bamaslahat va hamkorlikda: - birinchi navbatda zarur deb hisoblansa, pedagog yoki mutaxassis psixolog ishtirokida bolaning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi va ehtiyoji, o‘zi va hayoti bilan bog‘liq muammolar aniqlanadi;

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari hisobga olingan holda, u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi;

- qiziqishi, qobiliyati va iste’dodiga qarab, bolani maktabdagi, maktabdan tashqari madaniyat muassasalaridagi va militsiya tayanch punktlari negizida tashkil etilgan turli to‘garaklar, sport mashg‘ulotlari, kichik va o‘rta biznes shoxobchalari, yozgi

ta’til vaqtida lager va oromgoxdarga joylashtirish choralari ko‘riladi;

- bolaning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi biriktiriladi;
- mehnat qilish yoshiga yetgan bola uning sog‘ligiga zarar qilmaydigan, qonun talablariga javob beradigan ish bilan ta’minlanadi;
- zarur hollarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammolarni xal etish bo‘yicha vakolatli idoralarga murojaat qilinadi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofikdashtirish mas’uliyati maktab ma’muriyati vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofikdir²⁰.

Eslatma. Ishsizlik, ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo‘lmaslikning eng salbiy oqibatlaridan biri - jinoyatchilik, shu jumladan uyushgan jinoyatchilik bilan bog‘liqlgi, ya’ni uni «oziqrantirishi» va o‘sirishidir. Boshimizga tushayotgan ko‘pgina muammolar, balo-qazolar, avvalambor, endi voyaga yetayotgan yoshlарimiz farzandlarimiz taqdirini oladigan bo‘lsak, o‘zi ko‘pincha ishsizlikdan boshlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bola bo‘sh vaqtini behuda va mazmunsiz o‘tkazishda davom etsa va bu

²⁰ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. - T., 1999. - 262 b.

o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsata boshlasa, ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki maktab ma’muriyati tuman (shahar) IIBning hududiga biriktirilgan Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklariing profilaktikasi inspektoriga (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektoriga) murojaat qilishi shart.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklariing profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) bo‘sh vaqtini behuda va mazmunsiz o‘tkazayotgan bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yig‘ini huzuridati Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi, maktab ma’muriyati, sinf rahbari yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslaxat va hamkorlikda:

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to‘liq va mukammal aniqlanganligi va ular u bilan yakka tartibda tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar qanchalik o‘tkazilpshligini, bunda bola manfaatlari qanchalik hisobga olinganligini o‘rganishi lozim;

- bola bilan o‘tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar, unta biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko‘rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamlar, uning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar nima uchun samara bermayotganligining sabablarini aniqlaydi;

- aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida bolaga nisbatan amalga oshiriladigan belgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unga amaliy yordam ko‘rsatish uchun mas’ul shaxslarga o‘z vazifalarini bajarmayotganliklarini ma’lum qiladi, zarur hollarda bu haqda prokurorga belgilangan tartibda murojaat qiladi;
- majburiyatlarini bajarmayotgan, bolaning bo‘sh vaqtini behuda va mazmunsysz o‘tkazishiga shart-sharoit yaratib berayotgan oga-onani yoki o‘rnini bosuvchi shaxslarni, mansabdor shaxslarni aniqlaydi va ularga nisbatan belgilangan choralarni ko‘radi.

Tuman (shahar) IIIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi choralarni ko‘radi: - voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olish, borasida aholi turar joylari, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida, qolaversa ommaviy axborot vositarida targ‘ibot va tashkilot ishlarini olib boradi;

- ma’muriy hududda joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar bilan kelishgan holda, shuningdek mehnat birjalari yordamida mehnat qilish yoshiga yetgan bolani uning sog‘ligiga zarar kilmaydigan, qonun talablariga javob beradigan ish bilan

ta'minlashda ko'maklashadi;

- voyaga yetmaganlarni ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha davlat idoralari va jamoat tashkilotlariga takliflar kiritadi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiklashtirish uchun mas'ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

Eslatma. Voyaga yetmaganlar o'rtasida xuquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektorlari va profilaktika inspektorlari o'z faoliyatini birinchi navbatda xuquqbuzarliklarning oldini olish, sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga ko'maklashish, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrashga qaratgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin¹.

Ishsizlikning jinoyatchilikka ta'sirini o'rgangan kriminolog olimlarning fikricha, ishsizlikning 10%ga ko'payishi jinoyatchilikning 3,4-6,5 % o'sishiga olib keladi

IV. BOLA SURUNKALI RAVISHDA MAKTABGA BORISHDAN BO‘YIN TOVLAGANDA

Ota-onan yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasiga, maktab ma’muriyatiga muammoning sabablarini aniqlash va hal etishda yordam berishni so‘rab murojaat qiladi. Ular bamaslaxat va hamkorlikda:

- birinchi navbatda zarur deb hisoblansa, psixolog mutaxassis ishtirokida bolaning ehtiyoji, kyziqishi, o‘zi va hayoti bilan bog‘liq muammolar aniqdanadi. Bunda, avvalo, uning xattixarakatidagi yangi psixologik, biologik, fiziologik o‘zgarishlarni o‘rganish kerak;
- bolaning oiladagi yashash va o‘qish shart-sharoitini, ijtimoiy- ruxiy muxitni, oila a’zolarining bir-biriga munosabatini o‘rganiladi, muammolar aniqlanib ularni xal etish bo‘yicha kerakli maslaxatlar beriladi yoki amaliy yordam kursatiladi;
- dam olish joylarida, kompaniyalarda yurgan vaqtlarida, jamoat joylaridagi uning xattixarakati kuzatiladi, unga nisbatan tengdoshlarining munosabati o‘rganiladi;
- bolaning maktabdagi o‘qishi o‘rganiladi. Negaki, o‘qituvchining o‘quvchidan xar safar darsni surayverishi, fanga qiziqmagan bolaning maktabdan bezishiga olib kelishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchini o‘qishga majburlashi emas, balki unga o‘qishning, ayniqsa yaxshi o‘qishning ahamiyatini tushuntirib bera

olish kerak;

- bolaning ehtiyojini, qiziqishini hamda muammolarini hisobga olgan holda, u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi;
- bolaning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tqazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi biriktiriladi;
- zarur hollarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammolarni xal etish bo‘yicha vakolatli idoralarga murojaat qilinadi.



Oilada o‘z fikriga ega bo‘lmagani, doimo ota-onas fikrini kutishi ham bolaning erkini chegaralab qo‘yishdan dalolatdir.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiklashtirish mas’uliyati maktab ma’muriyati vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofikdir.

Eslatma. Bola bilan ishlayotgan barcha sub'ektlarning o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishi, bir-biri bilan o‘z vaqtida axborot almashib turishi, unga nisbatan olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik suhbat, u jalb etilayotgan maktabdan tashqari mashg‘ulotlar, tadbirlar qanchalik natija berayotganligini birgalikda muhokama qilib borish boladagi surunkali ravishda mакtabga borishdan bo‘yin tovlashdan bartaraf etishning garovidir.

Bolaning surunkali ravishda mакtabga borishdan bo‘yin tovlashiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- a) bolaning xatti-xarakatidagi yangi psixologii, biologik, fiziologik o‘zgarishlarning yuzaga kelishi (o‘ziga ishonchszizlik, o‘ziga o‘zi past baho berish, bilim orttirish faoliyatining pastligi);
- b) dam olish joylarda, kompaniyalarda bolaga uning tengdoshlari tomonidan ta’sir ko‘rsatilishi, buning natijasida bolaning mакtabga bormasdan kompyuter uyini klublariga, internet kafelarga va boshqa joylarga borishi;
- v) mакtabda o‘qituvchining bolani fanga qiziqtira olmasligi, ustiga-ustak undan har safar darsni surayverishi, buning natijasida bolaning o‘qishdan bezishi;
- g) o‘qituvchining bolani o‘qishiga majburlansh, unta o‘qishning, ayniqsa yaxshi o‘qishning axamiyatini tushuntirib bera olmasligi;
- d) mакtabda darslarga ukituvchilardan birining o‘rniga ikkinchisi kirish orqali bolalarni darsdan sovitishi;

e) ota-onan o‘z majburiyatlarini bajarmasligi, oilada farzand taqdiriga befarqligi, o‘qishlari bilan qiziqmasligi, ota-onanining boladagi psixologik hususiyatlarini bilmasligi, ota-onanining pedagogik ta’limi yetarli darajada emasligi;

j) oiladagi mavjud bo‘lgan iqtisodiy kiyinchiliklar, ya’ni ota-onan va farzandlarning maktabga borishiga xoxishi bor, lekin bolani maktabga yuborish uchun kiyim-kechak. o‘quv qurollari yuqligi yoki eskiligi natijasida bolaning maktabga borishdan uyalishi va boshq.

Yuqorida ko‘rsatilgan yunalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bola surunkali ravishda maktabga borishdan buyin tovlashni davom ettirsa, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki mакtab ma’muriyati tuman (shahar) IIBning hududga biriktirilgan Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektoriga (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektoriga) murojaat qilishi shart¹.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) surunkali ravishda maktabga borishdan bo‘yin tovlayotgan bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari

bo‘yicha maslaxatchi, maktab ma’muriyati, sinf murabbiysi yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslaxat va hamkorlikda: bolani ichki ishlar organlariga profilaktik hisobini ixtisoslashtirilgan o‘quvtarbiya muassasasiga joylashtirish Bolani ixtisoslashtirilgan o‘quvtarbiya muassasiga yuborish to‘g‘risidagi ishlar albata prokuror ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Qaror ijrosi ta’minlanishi uchuy tuman (shahar) xilq ta’limi organlariga yuboriladi.

V. BOLA CHEKISHNI BOSHLASA

Ota-onada yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishslash komissiyasiga, maktab ma’muriyatiga muammoning sabablarini aniqlash va hal etishda yordam berishni so‘rab murojaat qiladi. **Ular bamaslaxat va hamkorlikda:**



- birinchi navbatda zarur deb hisoblansa. psixolog mutaxasis ishtirokida bolaning ehtiyoji, qiziqishi, o‘zi va hayoti bilan bog‘liq muammolar aniqlanadi;

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolarini hisobga

olgan holda, u bilan tibbiyot xodimi ishtirokida yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi;

- bolaning tamaki mahsulotlarini dastlab qachon, kim bilan birga chekishni boshlaganini, uning atrofidagi tengdoshlarining chekishga bo‘lgan munosabati, tamaki mahsulotini harid qilish uchun mablag‘ni qaerdan olayotganligi, uni chekishga undovchi shaxs (guruh)ni aniqlash hamda ularning ta’sirini zararsizlantirish choralarini amalga oshiradilar, zarur hollarda tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektoriga murojaat qiladilar;

- bolaning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tqazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi biriktiriladi;

- zarur hollarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammoni - etish bo‘yicha vakolatli idoralarga murojaat qilinadi.

Bola chekishinipg oldini olishda birdaniga qat’iy ravishda taqiq o‘rpatisht kamdan-kam hollarda samara beradi. Bunda, avvalo, vositalardan foydalanib, bolaga chekishning zarari haqida tushuntirim ishlarini olib borish lozim.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish mas’uliyati maktab ma’muriyati vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofiq.

Eslatma: o‘tkazilgan tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlar davomida ota-onalarning o‘rnini bosuvchilar, shuningdek məktəb məmuriyati tomonidan bolaga tamaki mahsulotlarını chekishning inson organizmi uchun zarari, uning mudhish oqibatlarini mutaxassis shifokor yordamida tushuntirib berish, uning ongiga yetkazish, uning chekishini qo‘llab-quvvatlovchi shaxslarni aniqlash hamda ularning ta’sirini zararsizlantirish boladagi surunkali ravishda tamaki mahsulotlarini chekishni bartaraf etishning garovidir.

Bolaning chekishga o‘rganishga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- a) kattalarga va ularning chekish bilan bog‘liq xattiharakatlariga taqlid qilishi. Taqlid, avvalo, barg, o‘t, sigaret qoldig‘idan boshlanadi va eng asosiysi, chiroylisiga sigaret qutisini ko‘rgandan keyin qiziqish oqibatida chekish xohishi paydo bo‘ladi;
- b) bolada bekorchi vaqtning ko‘pligi va uning ota-onalarning tomonidan nazorat qilinmasligi;
- v) bola yosh hususiyatidan kelib chiqib, erkinlikni, mustaqillikni, sarguzashtlarni yaxshi ko‘rishi, shuningdek o‘zgaruvchan kayfiyatga egaligi, boshqa bolalar orasida teng huquqli yoki lider bo‘lishiga intilishi;
- g) bolaga nisbatan o‘qituvchining yoki ota-onalarning adolatsiz qilmishi uning xotirasida uzoq vaqt saqlanishi va qasos hissi uyg‘onishi natijasida məktəbga bormasdan o‘ziga teng bo‘lgan yoki jismonan zaif bolalar bilan do‘stlashishi;



d) ota-onasi yoki o‘qituvchining o‘zi chekishi, bolaning ular qarovsiz koldirgan tamaki mahsulotlaridan yashirin ravishda olib chekishi;

j) katta yoshdagilarning bolani savdo do‘koniga tamaki mahsulotlarini olib kelish uchun jo‘natishi va do‘konlarda bolalarga tamaki mahsulotlarining sotilishi;

z) ota-onaning bolaga ehtiyojidan ortiq ko‘proq pul berishi va bola tomonidan uning sarflanishini nazorat qilmasligi va boshqalar.

Bolani chekishdan to‘xtatishda ular bilan ommaviy auditorayada profilaktik tadbirlar o‘tqazish befoyda, chunki ommaviy ravishda ruxiyatga ta’sir etish ko‘ngildagidek samara bermaydi. Bu borada bola bilan yakka tartibda suhbat o‘tqazish, tarbiyalash katta samara beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan yunalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bola surunkali ravishda tamaki mahsulotlarini chekishni davom ettirsa, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki maktab ma’muriyati tuman (shahar) IIBning hududga biriktirilgan Voyaga yetmaganlar

o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektoriga (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektoriga) murojaat qilishi shart.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) surunkali ravishda tamaki mahsulotlarini chekayotgan bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslaxatchi, maktab ma’muriyati, sinf rahbari yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslaxat va hamkorlikda:

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to‘liq va mukammal aniqlanganligi va u bilan yakka tartibda tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar qanchalik o‘tkazilganligini, bunda bola manfaatlari qanchalik hisobga olinganligini o‘rganishi lozim;

- bolaning tamaki mahsulotlarini chekishini ko‘llab-quvvatlovchilarni, u bilan birgalikda chekuvchilar, shu jumladan tengdoshlarini, tamaki mahsuloti uchun mablag‘ni qaerdan olayotganligini, uni chekishga undovchi shaxs (guruh)ni aniqlaydi hamda ularning ta’sirini zararsizlantirish choralarini quradi;

- bola bilan o‘tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy-

profilaktik suhbatlar, o‘nta biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko‘rsatilgan ijtimoiy, xukuxiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamlar, uning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarnima uchun samara bermayotganligining sabablarini aniqdaydi;

- aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida, bolaga nisbatan amalga oshiriladigan belgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unta amaliy yordam ko‘rsatish uchun mas’ul shaxslarga o‘z vazifalarini bajarmayotganliklarini ma’lum qiladi, zarur hollarda bu haqda prokurorga belgilangan tartibda murojaat qiladi;

- majburiyatlarini bajarmayotgan, bolaning surunkali ravishda maktabga borishdan bo‘yin tov lashiga shart-sharoit yaratib berayotgan ota-onani yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni, mansabdor shaxslarni aniqlaydi va hujjatlarni hoqimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga taqdim qiladi.

Tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirishda qo‘llanmaning 1.2.-bandida ko‘rsatilgan huquqlarga ega.

Xizmat xonasiga keltirilgan voyaga yetmaganlar 3 (uch soatgacha, adashgan va tashlab ketilgan, shaxsi noaniq va daydi voyaga yetmaganlar esa 8 (sakkiz) soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Eslatma. Bola bilan ishlayotgan barcha sub'ektlarning o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishi, bir-biri bilan o‘z vaqtida axborot almashib turishi, unga nisbatan olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik suhbat, u jalg etilayotgan mактабдан ташқари mashg‘ulotlar, tadbirlar qanchalik natija berayotganligini birgalikda muhokama qilib borish bolalarning ijtimoiy salbiy illatlarga kirib qolishi, xususan, tamaki mahsulotlarini chekish holatlari oldini olishining garovidir.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofikdashtirish uchun mas’ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

VI. BOLA ICHKILIKBOZLIKKA BERILGANDA

Ota-onan yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishslash komissiyasiga, maktab ma’muriyatiga muammoning sabablarini aniqlash va hal etishda yordam berishni so‘rab murojaat qiladi. Ular bamaslaxat va hamkorlikda:

- birinchi navbatda zarur deb hisoblansa, psixolog mutaxassis ishtirokida bolaning ehtiyoji, qiziqishi, o‘zi va hayoti bilan bog‘liq muammolar aniqlanadi;

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolarini hisobga olgan holda u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi;

bolaning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tqazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi biriktiriladi;

zarur hollarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha vakolatli idoralarga murojaat qilinadi²¹.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish mas’uliyati maktab ma’muriyati

²¹O‘zbekistan Respublikasining «Bola huquqlarinn shafatlari to‘g‘risidayagi qonuning 5-moddasi // O‘zbekistan Respublikasining konun xujjalari to‘plami, T.,2008,-№ 1-2- 1-y.; O‘zbekistan Respublikasining «O‘zbekistan Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida» qonuning 6-moddasi // O‘zbekistan Respublikasi Oliy Sovetining axboratnomasi - T., 1992. - № 2.- 80-M.

vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofiq.

Eslatma. O‘tkazilgan tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlar davomida ota-onan yoki uning o‘rnini bosuvchilar, shuningdek maktab ma’muriyati tomonidan bolaga spirtli ichimliklarni iste’mol qilishning inson organizmi uchun zarari, uning mudhish oqibatlarini mutaxassis shifokor yordamida, diniy-ma’rifiy tomonlama ma’naviy oqibatini diniy mutaxassis yoki diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslaxatchi yordamida tushuntirib berish, uning ongiga yetkazish boladagi spirtli ichimliklarni iste’mol qilishni bartaraf etishning garovidir.

Bolaning ichkilikbozlikka berilishiga olib keluvchi sabablar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- a) bolada bekorchi vaqtning ko‘pligi va ota-onan tomonidan uning nazorat qilinmasligi;
- b) bolaning o‘zidagi mavjud muammolarni spirtli ichimlik iste’mol qilish orqali vaqtinchalik unutishga harakat qilishi va buning natijasida unda irodasizlik ortib, spirtli ichimlikka ruju qo‘yishi;
- v) boshqalardan ajralib turishga harakat qilishi, spirtli ichimlikni oshkora ravishda ichish orqali o‘z xatti-harakatlarining boshqalarnikiga o‘xshamasligini namoyish etishga harakat qilishi;
- g) uyda mexmonlarni kuzatib bo‘lgandan keyin, bolalarning qolgan spirtli ichimlikni, jumladan arok, vino yoki pivoni ichib ko‘rishi yoki yashirib qo‘yib ichishi natijasida unga o‘rganib qolishi;
- d) bola organizmining spirtli ichimlikni iste’mol qilgan

vaqtida rohatlanishi, huzur qilishi natijasida bolaning uni yana takror iste'mol qilishga xohishi paydo bo'lishi;

ye) katta yoshdagilarning bolani savdo do'konlarda spirtli ichimliklarni olib kelish uchun jhnatishi va do'konlarda bolalarga spirtli ichimliklarning sotilishi;

j) bolalardagi spirtli ichimliklarni ko'p istemol qilish bo'yicha bahslar natijasida ularning surunkali ichkilikbozlikka kirib qolishi;

z) ota-onaning bolaga xaddan ziyod mexr kuyishi natijasida keragidan ortiq ishonishi;

i) ota-onaning bolaga ehtiyojidan ortiq ko'prok pul berishi va bola tomonidan uning sarflanishini nazorat qilmasligi va boshqalar.

Bolaning ichkilikbozlikka berilganining sababini



o'rghanishda uning avlodida ichkilikka ruju qo'yganlar bor-yo'qligi o'ganilishi shart.

Yuqorida ko'rsatilgan yunalishlar bo'yicha amalga

oshirilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bola surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishni davom ettirsa ota-onasi yoki ularning o‘rniii bosuvchi shaxslar yoki maktab ma’muriyati tuman (shahar) IIBning hududga biriktirilgan Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektoriga (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektoriga) murojaat qilishi shart.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilayotgan bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishslash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslaxatchi maktab ma’muriyati, sinf rahbari yoki boshqa pedagogdar bilan bamaslaxat va hamkorlikda:

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to‘liq va mukammal aniqlanganligi va u bilan yakka tartibda tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar qanchalik o‘tkazilganligini, bunda bola manfaatlari qanchalik hisobga olinganligini o‘rganish lozim;

- spirtli ichimlik voyaga yetmagan shaxsga qanday yo‘llar bilan yetib borayotganligini aniqlash va ularni to‘xtatib kuyish choralapini ko‘rish lozim²²;



- bola bilan o‘tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar, unga biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko‘rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamlar, uning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar nima uchun samara bermayotganligining sabablarini aniqlaydi;
- aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida, bolaga nisbatan amalga oshiriladigan bedgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unga amaliy yordam ko‘rsatish uchun mas’ul shaxslarga o‘z vazifalarini bajarmayotganliklarini ma’lum qiladi, zarur hollarda bu haqda prokurorga belgilangan tartibda murojaat qiladi;
- majburiyatlarini bajarmayotgan, bolaning surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishiga shart-sharoit yaratib berayotgan ota-onani yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni,

²²Abdujalilov A.A Voyaga yetmaganlar va yoshlар huquqbazarligи hamda jinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlari // Ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhtoj bolalarning huquqiy huquqiy holati ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T., 2006.-B.187.

mansabdor shaxslarki aniqlaydi va hujjatlarni hoqimliklar huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga taqdim qiladi.

Tuman (shaxnr) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shaxrnda hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirishda qo‘llanmada ko‘rsatilgan, shuningdek quyidagi choralarni ko‘radi:

- spirtli ichimlikning bola qo‘liga qanday yetib borayotganligi tafsilotlarini aniqlaydi;
- voyaga yetmaganlarni spirtli ichimlikni iste’mol qilishga unda yotgan shaxslarni aniqlash borasida tegishli xizmat sohalari bilan birgalikda tadbirlar o‘tkazadi;
- bolani profilaktik ruyxat hisobiga oladi;
- voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya bolani hisobga olish to‘g‘risida qaror chiqarganda, qonunda ko‘rsatilgan tartibda tegishli hujjatlarni tibbiy muassasalar yordamida rasmiylashtirib, sud qarori asosida bolani majburiy davolashga junatadi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish uchun mas’ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

Eslatma. Bola bilan ishlashga ishining hakikiy mutaxassisi va fidoyisi bo‘lgan kishilarni jalb etish, ularning o‘z vazifalarini sidqidildan va bolaning individual hususiyatlarini hisobga olib, tanlagan usullarni qullagan holda bajarishi, kerakli axborotdan o‘z vaqtida foydalanishi, unga nisbatan olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik suhbat, u jalb etilayotgan maktabdan tashqari mashg‘ulotlar, tadbirlar qanchalik natija berayotganligini muntazam monitoring qilib borish bola tomonidan surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishning oldini olish va uning sabablarini bartaraf etishning garovidir.

Agarda yuqoridagi ko‘rsatilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bola surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishni davom ettirsa, tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) bolaning bu salbiy qilmishi va uning oldini olish jarayonida to‘plangan barcha materiallarni xoqimliklar huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.

Tuman (shahar) xoqimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol kilayotgan bolaning ishini ko‘rib chiqishda:

-bolaning surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishining oldini olish va uni bartaraf etish uchun mas’ul bo‘lgan

ota-onas, maktabs ma'muriyati, unta biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi, mutaxassis, tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o'rtaida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektorining olib borgan ishlar bo'yicha hisobotini eshitishadi hamda bu jarayonda ishtirok etgan jamoat tuzilmalari taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va zarur bo'lgan ko'shimcha hujjatlarni taqdim etishni talab qiladi;

-komissiya raisi bilan kelishgan holda, hujjatlar komissiya a'zolariga o'rganish uchun taqdim etiladi;

-ishni ko'rib chiqishda ishtirok etishi zarur bo'lgan shaxslar doirasi aniqlanadi, vaqt va unda qatnashishi kerak bo'lgan a'zolar belgilanadi;

-komissiya ishlarni tayyorlash va karab chiqish paytida voyaga yetmagan shaxsning yoshini, mashg'ulotini, yashab turgan va tarbiyalanayotgan sharoitini, huquqbuzarlik kilganligi faktini va uning sodir etilganini tasdiqlovchi dalillarni, shuningdek sgtirtli ichimlik iste'mol qilishga jalb etuvchi katta yoshdagi kishilar va boshqa qatnashchilar bo'lgan-bo'limganligini, Voyaga yetmagan shaxslarga ilgari ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan-qo'llanilmaganligini aniqlashi zarur;

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to'liq va mukammal aniqlanganligi va ular u bilan yakka tartibda tarbiyaviy- profilaktik suxbanlar qanchalik o'tkazilgandigi,

bunda bola manfaatlari qanchalik hisobga olinganligi o‘rganiladi;

- bola bilan o‘tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar, unga biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko‘rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamdar, uning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar nima uchun Samara bermayotganligining sabablari aniqdanadi;

- aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida bolaga nisbatan amalga oshiriladigan belgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unga amaliy yordam ko‘rsatish uchun mas’ul shaxslarga o‘z vazifalarini bajarmayotganliklari ma’lum kilinadi;

- komissiya ishni qarab chiqish uchun zarur ma’lumot va hujjatlarni talab qilib olishi, shuningdek komissiyada ko‘riladigan masalalar yuzasidan izoxlar olish uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarni chakirishi mumkin;

- mansabdor shaxslar va fuqarolar komissiya chaqirig‘i bo‘yicha uzrsiz sabablar bilan kelmagan takdirda, komissiya ishni kurishni koldirib, ularni uzlari ishlab yoki ukib turgan joydagi ma’muriyat, jamoag tashkilotlari orqali olib kelgan choralarini kurishi mumkin;

- ishi kurilayotgan voyaga yetmagan shaxe, shuningdek uning ota-onasi yoki ularnint o‘rnini bosuvchi shaxslar komissiyaga uzrsiz sabablar bilan kelishdan bosh torttan taqdirda,

ular ichki ishlar organlari orqali olib kelinishi mumkin;

bolani ichki ishlar organlarining profinaktik hisobiga olish uchun qaror chikaradi;

- bolani tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib, mutaxassis shifokor yozma xulosasiga ko‘ra majburiy davolanishga yuboriladi.

- «ichkilikbozlik» kasalligiga duchor bo‘lgan ota-onalarning muomada layokatini cheklash yoki ota-onalik huquqdan maxrum qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin,

Eslatma. Ishni ko‘rib chiqishning barcha boskichlarida bolaning extiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to‘liq va mukammal aniqlanganligi va u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suxbaglar qanchalik o‘tkazilganligi, bunda bola manfaatlari qanchalik hisobga olinganligini o‘rganib borish bolaning surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishini bartaraf etishning garovidir.

Komissiyalar ichki ishlar organlari va xalq ta’limi organlari taqdimi bo‘yicha berilgan ishlarni ular tushgai paytdan boshlab ko‘pi bilan 15 kun ichida ko‘rib chiqadilar.

Tuman (shahar) hoqimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirishda:

- voyaga yetmaganlar, ota-onalarni shaxsan qabul qilish, ularning shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy hujjatlar yigma jyddlari bilan tanishishi mumkin;
- ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida

huquqbarliklarning profilaktikasi inspektori va profilaktika inspektori ishlarining axvolini tekshirishi mumkin;

— umumta’lim maktablari va boshqa o‘quv yurtlarida, madaniy- ma’rifiy muassasalarda, shuningdek voyaga yetmaganlar ishlab turgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda bolalar va o‘smirlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning axvolini tekshirishi mumkin;

— davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan komissiya ishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rab olishi mumkin;

— jamoatchilikni voyaga yetmaganlarni kayta tarbiyalash ishlarida qatnashishga jalg etishi mumkin;

o‘ziga yuklatilgan vazifalarni umuman yoki lozim darajada bajarmagan tegishli davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar oldiga komissiya qarorlarini bajarmagan mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy jazo chorasi yoki jamoatchilik ta’siri ko‘rsatish chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani qo‘yishi mumkin.

VII. BOLA GIYOHVANDLIKKA BERILGANDA

Ota-onan yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar fuqarolar yigini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasiga, maktab ma’muriyatiga muammoning sabablar mi aniqlash va xal etishda yordam berishni surab murojaat qiladi. Ular bamaslaxat va xamkorlikda:

- birinchi navbatda zarur deb hisoblansa, psixolog mutaxassis ishtirokda bolaning ehtiyoji, qiziqishi, o‘zi va hayoti bilan bog‘liq muammolar aniqlanadi¹;
- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolarini hisobga olgan holda u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi;
- bolaning giyoxvandlik moddasini iste’mol qilish uchun moddiy mablag‘ni kaerdan olishini aniqlash, ta’minotchisi kim ekanligini bilish kerak;
- bolaning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tqazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi biriktiriladi;
- bolani narkologiya dispanseri kurgiga olib boriladi;
- zarur hollarda ijtimoiy, xuquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha vakolatdi idoralarga murojaat qilinadi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar

faoliyatlarini muvofiklashtirish mas’uliyati maktab ma’muriyati vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofiq.

Eslatma. O’tkazilgan tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlar davomida ota-onan yoki uning o’rnini bosuvchilar, shuningdek maktab ma’muriyati tomonidan bolaga giyoxvand moddalarni iste’mol kilishning inson organizmi uchun zarari, uning mudxish oqibatini diniy mutaxassis shifokor yordamida, diniy-ma’rifiy tomonlama ma’naviy oqibatini diniy mutaxassis yoki diniy ma’rifat va ma’naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslaxatchi yordamida tushuntirib berish, uning ongiga yetkazish bo‘ladagi giyoxvand moddalarni iste’mol qilishni bartaraf etishning garovidir.

- a) bolada bekorchi vaqtning ko‘pligi va ota-onan tomonidan uning nazorat kilinmasligi;
- b) bolaning giyoxvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilib ko‘rishga bo‘lgan qiziqishi, uning ta’sirini o‘zida sinab ko‘rishga intilishi;
- v) boladagi stressga chidamlilikning pastligi, tortinchoqlik, itoatkorlik yoki uning aksi - tez asabiylashishi;
- g) ota-onaning giyoxvandlik vositalarini iste’mol kilishi;
- d) bolaning turli xil norasmiy o‘smirlar guruhlarining ta’siriga tushib kolishi, ularga tobe bo‘lib qolishi;
- ye) bolaning chekish, surunkali ichkilikbozlikning mantikiy davomi sifatida giyoxvandlik vositalarini iste’mol qilishi;
- j) ota-onaning bolaga xaddan ziyod mexr qo‘yishi natijasida unga keragidan ortiq ishonishi;
- z) ota-onaning bolaga ehtiyojidan ortiq ko‘prok pul berishi



va bola tomonidan uning sarflanishini nazorat kilmasligi va boshqalar.

Giyoxvandlik vositalari bilan noqonuniy savdo qiluvchi shaxslar va giyoxvandlar bolani

giyoxvandlikka o'rgatishda, asosan, moddiy tomonlama yaxshi ta'minlangan oilalarning bolalarini ko'proq o'zlariga o'lja sifatida jalb qilishga xarakat qiladilar.

Yuqorida ko'rsatilgan yunalishlar bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermay, bola surunkali ravishda giyoxvand moddalarni iste'mol qilishni davom ettirsa, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki maktab ma'muriyati tuman (shahar) IIBning hudud ga biriktirilgan Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektoriga (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektoriga) murojaat qilishi shart.



Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika

inspektori) surunkali ravishda giyoxvand moddalarni iste'mol kilayotgan bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yigini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma'rifat va ma'naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo'yicha maslaxatchi, maktab ma'muriyati, sinf murabbiysi yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslaxat va xamkorlikda:

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to'liq va mukammal aniqlanganligi va u bilan yakka tartibda tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar qanchalik o'tkazilganligini, bunda bola manfaatlari qanchalik hisobga olinganligini o'rganishi lozim;

- bola bilan o'tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar, unga biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko'rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamlar, uning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar nima uchun samara bermayotganligining sabablarini aniqlaydi;

- aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida bolaga nisbatan amalga oshiriladigan belgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unga amaliy yordam ko'rsatish uchun mas'ul shaxslarga o'z vazifalarini bajarmayotganliklarini ma'lum qiladi, zarur hollarda bu haqda prokurorga belgilangan tartibda murojaat

qiladi;

- majburiyatlarini bajarmayotgan, bolaning surunkali ravishda giyoxvandlik moddalarini iste'mol qilishiga shart-sharoit yaratib berayottan ota-onani yoki o'rnini bosuvchi shaxslarni, mansabdor shaxslarni aniqlaydi va hujjatlarni hoqimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga taqdim qiladi;
- bolani tibbiy ko'rikdan o'tkazib, mutaxassis shifokor yozma xulosasiga ko'ra majburiy davolanishga yuboriladi.

Tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirishda qo'llanmada ko'rsatilgan, shuningdek quyidagi choralar ni ko'radi:

- bolani giyoxyand moddalarni iste'mol qilishga undayotgan shaxslarni aniqlash borasida tegishli xizmat sohalari bilan birgalikda tadbirlar o'tkazadi;
- giyoxvand vositalari yoki psixogrop moddalar bolaning qo'liga qanday yetib borayotganligi tafsilotlarini aniqlaydi;
- ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatliri bilan birgalikda «giyoxvandlik» kasalligiga duchor bo'lgan ota-onalarning muomala layokatini cheklash, ota-onalik huquqidan maxrum qilish haqidagi hujjatlarni rasmiylashtirishda

ko‘maklashadi;

- sog‘likni saqlash muassasalariga kelishdan bosh tortgan, majburiy davolanishga muhtoj surunkali ravishda giyoxvand moddalarni iste’mol qiluvchi bolani tibbiy ko‘rikdan o‘tqazishga olib kelishga yordamlashadi;
- Mutaxassis shifokorning yozma xulosasi asosida qonunda ko‘rsatilgan tartibda tegishli hujjatlarni tibbiy muassasalar yordamida rasmiylashtirib, sud qarori asosida bolani majburiy davolanishga jo‘natadi;
- sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan «giyoxvand» tashxisi qo‘yilgan va majburiy davolash muassasasidan qaytgan bolaga nisbatan hisob profilaktik ishi yuritadi;
- bolaning profilaktik hisobga olinganligi haqida uning yashash, o‘qish va ish joyiariga xabar beradi.

Eslatma. Bola giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishni boshlagan dastlabki bosqichlardoq undan qaytarish bu borada amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar samarasini ta’midaydi hamda bolaning ijtimoiy sog‘lom hayotga qaytishini tezlashtiradi va osonlashtiradi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish uchun mas’ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

VIII. BOLA SALBIY GURUHDAR, DINIY-EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK G‘OYALAR TA’SIRIGA TUSHIB QOLGANDA

Ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar fuqarolar yig‘ini huzuridagi diniy ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslaxatchi, yoshlар bilan nshlash komissiyasi va maktab ma’muriyatiga muammoning sabablarini aniqlash hamda hal etishda yordam berishni so‘rab murojaat qiladi. Ular bamaslaxat va hamkorlikda:

- birinchi navbatda zarur deb hisoblansa, mutaxassis ishtirokida bolaning ehtiyoji, qiziqishi, o‘zi va hayoti bilan bog‘liq muammolar aniqlanadi;
 - bolaning oiladagi yashash va o‘qish shart-sharoiti, ijtimoiy- ruxiy muhit, oila a’zolarining bir-biriga munosabati o‘rganiladi, muammolar aniqlanadi va ularni hal etish bo‘yicha kerakli maslaxatlar beriladi yoki amaliy yordam ko‘rsatiladi;
 - bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari hisobga olingan holda, u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi;
 - bolaning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tqazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi biriktiriladi;
- zarur hollarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va

boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha vakolatli idoralarga murojaat qilinadi,

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish mas’uliyati maktab ma’muriyati vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofikdir.

Eslatma. Bola bilan ishlayotgan barcha sub’ektlarning unga dinning asl mazmuni va moxiyatini, shuningdek diniy-ekstremistik va terroristik oqimlar, g‘oyalar asl maqsad va muddaosini tushuntirib berishi hamda ongiga yetkaza bilishi, shuningdek uning huquqiy madaniyatini uzlusiz ravishda yuksaltirib borish bolaning diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib kolishining oldini olishning garovidir.

Bolaning sadbiy guruhlar, diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- a) bolada bekorchi vaqtning ko‘pligi va ota-onanidan uning nazorat qilinmasligi;
- b) oilada ota-onan va uning o‘rnini bosuvchilar tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojining o‘rganilmasligi, uning tarbiyasiga befarq yondashish;
- v) bolaga oila va maktabda huquqbazarlik va jinoyatlardan tiyilish, uning natijasida kelib chiqadigan oqibatlar to‘g‘risida tushungirilmasligi;
- g) bola hayotiniig rang-barang, qiziqarli bo‘lmasligi,

zerikarli bo‘lishi psixologik stressogen hayotga olib keladi, bu esa bolada yangi hayot, yangi vaziyat izlash, o‘zidagi ichki psixologik notinchlikni din bilan bog‘lash uchun asos bo‘ladi;

d) oilada ota-onada va boshqa katta yoshdagi yaqin qarindoshlarning dinning asl moxiyatini tushunmasligi, diniy ekstremistik va terroristik oqimlarga kirib ketganligi yoki bunga moyilligi;



e) oila a’zolari o‘rtasida stress holatlarning mavjudligi» oila va maktabda bolaning psixologik jihatdan sinib qolishi, ya’ni ruxiyatining cho‘kishi;

j) ota-onaning bolaga ehtiyojidan ortiq ko‘proq pul berishi va bola tomonidan uning sarflanishini nazorat qilmasligi;

z) bolaning ruxsat etilmagan joylarda yoki diniy saboq berishga ruxsati bo‘lmagan shaxslardan diniy bilim olishi;

i) bolaning jinoiy, diniy ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi varaqalar, adabiyotlar va boshqa manbalarni o‘rganishi, shuningdek videokasseta, CD, DVD disklarni tomosha qilishi va boshq.

Yuqorida ko‘rsatilgan yunalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shuningdek bolaga nisbatan salbiy guruhlar, diniy- ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’sirini bartaraf etish bo‘yicha olib borilgan ishlar o‘z samarasini bermay, bolaning dunyoqarashidagi salbiy qarashlar o‘zgarmasa, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki maktab ma’muriyati tuman (shahar) IIBning hududga biriktirilgan Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektoriga (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektoriga) murojaat qilishi shart.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) salbiy guruhlar, diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan bolaning ota- onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yigini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslaxatchi, maktab ma’muriyati, sinf raxbari yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslaxat va xamkorlikda:

- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to‘liq va mukammal aniqlanganligi va u bilan yakka tartibda tarbiyaviy- profilaktik suhbatlar qanchalik o‘tkazilganligini, bunda bola manfaatlari qanchalik xnsobga olinganligini o‘rganishi lozim;

bola bilan o‘tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar, unga biriktirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko‘rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamlar, uning bush vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar nima uchun samara bermayotganligining sabablari aniqdanadi;

- aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida, bolaga nisbatan amalga oshiriladigan belgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unta amaliy yordam ko‘rsatish uchun mas’ul shaxslarga o‘z vazifalarini bajarmayotganliklari ma’lum qilinadi, zarur hollarda bu xaqida prokurorga belgilangan tartibda murojaat kilinadi;

- majburiyatlarini bajarmayotgan, bolaning salbiy guruhlar, diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga shart-sharoit yaratib berayotgan ota-onani yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, mansabdor shaxslar aniqlanadi va hujjatlar hoqimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari

bo‘yicha komissiyalarga taqdim qilinadi.

Tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzar- liklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirishda ko‘llanmada ko‘rsatilgan, shuningdek quyidagi choralarni ko‘radi:

- diniy-ekstremistik oqimlarga kirgan va bunday oqimlarga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlarni IIB raxbariyati tomonidan jamiyatga zid xatti-xarakat qilmaslik to‘g‘risida rasmiy ogoxlantirilishini tashkil qiladi;
- bolaga nisbatan hisob profilaktik varaqasi yuritadi;
- bolani o‘z safiga jalg kilayotgan salbiy guruhlarni aniqlash borasida tegishli xizmat sohalari bilan birgalikda tadbirlar o‘tkazadi;
- bolaning diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalalar ta’siriga qanday kirib qolganligi tafsilotlarini aniqdaydi;
- bolani diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalarga jalg qilgan bunday oqim tarafdarlarini aniqdaydi va ular bilan tegishli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi, zarur hollarda tegishli tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko‘radi;
- tegishli asoslarga ko‘ra bolani diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalarga jalg kilgan bunday oqim tarafdarlarini profilaktik hisobga oladi;

- boshqa bolalarning xam salbiy guruhlar, diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun mahallalarda va ta’lim muassasalarida jinoyatchilik, diniy-ekstremizm va terrorizm kabi illatlarning ayanchli oqibatlari mavzularida uchrashuvlar, davra suhbatlari o‘tkazadi va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi;

- *mahalla, o‘quv muassasalari, hoqimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarda huquqbuzar voyaga yetmaganlar va farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning xulq-atvorini muhokama etishda katnashadi.*

Eslatma. Bolaning doimiy ravishda ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs nazorati ostida va e’tiborida bo‘lishi, uning bo‘sh vaqtlarini turli ijtimoiy foydali mashg‘ulotlarga jalb qilish orqali mazmunli o‘tqazish uning salbiy guruhdar, diniy- ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolishining oldini olish garovidir.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiklashtirish uchun mas’ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

Agarda yuqoridagi ko‘rsatilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay, bolaning dunyoqarashidagi salbiy qarashlar o‘zgarmasa, tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida

hudud profilaktika inspektori) bolaning bu salbiy qilmishi va uning oldini olish jarayonida to‘plangan barcha materiallarni hoqimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.

Shuningdek, bolalar huquqbazarliklar qilishlari uchun sharoit yaratib berayotgan yoxud voyaga yetmaganlarni jinoyat va boshqa gayriijtimoiy xatti-harakatlar qilishga undayotgan yoki jalb etayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga taqdimnomalar kiritadilar²³.

IX. BOLA QAROVSIZ VA NAROZATSIZ QOLGANDA

Hayotda ota-onas, oila, jamiyat e’tiboridan chetda qolgan qarovsiz bodalar toifasi xam uchraydi. Ular ota-onalari bilan bir xonadonda turmush kechirsalar ham oilaviy aloqalar juda zaiflashgan yoki mutlaqo barbod bo‘lgan vaziyatda yashaydilar. Tegishli qarov va parvarishning yukligi, rivojlanib kelayotgan shaxs ehtiyojlari va manfaatlariga beparvolik, ota-onalar tomonidan e’tiborsiz munosabatda bo‘lish qarovsiz bolaning psixofizik rivojlanishiga, axlokiy tarakkiyotiga jiddiy tahdid tug‘diradi. Adabiyotlarda qarovsiz bolalarning quyidagi toifalari keltirilgan:

²³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 17 yanvardagi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish(doir ko‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriniig 26- bandi

- 1) turli hildagi vaziyatlar ta'sirida muntazam ko'chada yashaydiganlar. Bular 1 oydan ortiq ko'chada yashovchi bolalar;
- 2) vaqtি-vaqtি bilan ko'chada yashaydiganlar. Bu bolalarning ko'chadagi hayoti bir necha kundan bir necha xaftagacha cheklangan. Ushbu toifadagi bolalar ota-onalarining surunkali ichishidan ko'chaga chiqib ketadilar, yetim bolalar (muassasadan qochgan) ning ko'chada yurishi tarbiyachi bilan nizoning bartaraf qilinishiga yoki ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan aniqlanib, Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga olib borishga qadar davom etadi;
- 3) uyida yashaydigan (tunaydigan), lekin o'z ehtiyojlarini ko'chada qondiradiganlar.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, birinchi toifadagi bolalar shahar ko'chalarida unchalik ko'p emas. Asosan ular qishloq joylaridan, ba'zi hollarda boshqa respublikalardan ishlab pul topish va yangi taassurotlar olish maqsadida kelishadi. O'smirlarning boshqa bir kismi esa uy-joysiz qolgan, ishlab pul topishga kelgan, lekin hali hech kaerga joylasha olmagan ota-onalari bilan katta shaharlarga kelib qolishadi. Ota-onalaridan ko'ra o'smirlar ko'chada yashash ko'nikmasini ko'proq orttiradilar: bozorda arava tashiydilar, suv, choy sotadilar, mashina yuvadilar va xk. Birok, ko'p hollarda ular darxol o'g'rilik malakasini egallaydilar, ko'p tanishlar orttiradilar, qonunni buzadilar, o'z tanishlari tomonidan

jiddiy xavf-xatarga yo‘liqadilar.

Ikkinchi toifadagi qarovsiz bolalar - erkin turmush tarzini tanlagan o‘smirlar (ko‘pchiligi internatlar, mehribonlik uylaridan qochganlar, kam hollarda – “uy bolalari”), Bu toifadagi o‘smirlarni spirtli ichimliklar va narkotik moddalar iste’mol qilish uzviy bog‘lab turadi. Guruhning faoliyati narkotik uchun ilojini topish, kaerdan topish, “joyi”ni qidirish, birgalashib iste’mol qilishdan iborat. Buning oqibatida jamiyat bilan aloqa batamom uziladi va guruh birinchi toifaga o‘tadi.

Ko‘cha guruhlari o‘zini o‘zi ta’minlay oladi va yirik shaharlarda oziq-ovqat, tunash uchun joy bilan ta’minlovchi yetarli darajada yaxshi uyushgan tizimga ega.

Uchinchi toifadagi bolalarni shahar ko‘chalarida, mакtabda uchratish mumkin. Ularni qarovsiz deb bo‘lmaydi, chunki ular uyda yashaydi va ularning ota-onasi bor. Ular uyiga qaytganda ota-onasi bilan muloqot qilishmaydi, o‘zi ko‘rgan hayotda yashab o‘z ma’naviyatlarini shakllantiradilar. Aynan shu o‘smirlar huquqbuzarlar, psixotrop moddalarni iste’mol qiluvchilar sifatida ichki ishlar idoralari xodimlari nazariga tushib qoladilar.

Ko‘cha bolalari o‘zlari bilmagan holda kelgusida qanday hayotni tanlashga ikkilanadilar. Buning oqibatida ularni qanday bo‘lsalar shundayligicha qabul qila oladigan, ularni tan oladigan va hurmat qiladigan insonni tanlaydilar. Ko‘pincha bu inson kriminal

o‘tmishga ega yoki biron-bir norasmiy guruh a’zosi bo‘lishi mumkin.

Qarovsiz qoldirilgan bolalar ko‘p hollarda “ko‘cha bolalari”ga aylanadilar. Ko‘pchilik ko‘cha bolalari esa turli hildagi psixotrop moddalarni iste’mol qilishadi. Ko‘pchiligi chekadi, toksik moddalar (yoshi 8-9dan 13-14gacha) qabul qilishadi (elim, buyoq, benzin). Keyinchalik esa spirtli ichimliklarni, ba’zi hollarda esa narkotik moddalarni iste’mol qilishgacha borishadi.

Ularning asosiy pul topish yullari - tilamchilik, mashina yuvish, bozorlarda o‘g‘rilik qilish, mashina apparaturalarini o‘g‘rilash va boshq. Oxir oqibatda ushbu bolalarda kriminal xulq-atvor shakllanadi va ularning jinoyatga qo‘l urishi kuzatiladi.

Ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qonun hujjatlarida belgilangannde, vasiylik va xomiylik organlariga taqdim etiladi.

Bu toifa ma’lumotlar quyidagi hollarda vasiylik va xomiylik organlariga taqdim etiladi:

- ota-onasi vafot etganda;
- ota-onasi ota-onalik huquqdaridan maxrum bo‘lganda;
- ota-onasining ota-onalik huquqlari cheklanganda;
- ota-onasi muomalaga layoqatsiz deb e’tirof etilganda;
- ota-onasi ikki oydan ortiq kasal bo‘lganda;
- ota-onasi olti oydan ortiq bo‘lmaganda;

-ota-onasi bolalarni tarbiyalashdan yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bosh tortganda;

- ota-onasi bolalarini tarbiya muassasalaridan, davolash muassasalaridan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va shunga o‘hhash muassasalardan olishni rad etganda.

Ma’lumotlar, shuningdek ota-onasi noma’lum bo‘lgan yoxud ular sud tomonidan bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’tirof etilgan, vasiylik va xomiylik organlarining ogohlantirishiga qaramasdan, ular bolalar bilan olti oydan ortiq yashamayotgan hollarda ham taqdim etiladi.

Vasiylik va xomiylik organi ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi.

Ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar vasiylik va xomiylik organiga quyidagilar tomonidan taqdim etilishi mumkin:

- bolaning qarindoshlari;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari (oksokollari);
- fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYo) organlarining mansabdor shaxslari (fuqarolarning o‘limini ro‘yxatdan o‘tkazishda ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar mavjudligi ma’lum bo‘lganda, shuningdek boshqa hollarda);
- sudlar (fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb e’tirof etish

to‘g‘risida, uni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risida qarorlar chiqarilganda, qaramog‘ida voyaga yetmagan bolalar mavjud bo‘lgan shaxslarni qamoqqa olishda yoki ozodlikdan mahrum etishda, shuningdek bolalar ota-onasining qarovisiz qolgan boshqa hollarda);

- muassasalar (maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim muassasalari, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari va boshqa muassasalar), jamoat birlashmalarining mansabdor shaxslari;
- bolalarning ota-onasining qarovisiz qolganligi to‘g‘risida ularga ma’lum bo‘lgan fuqarolar.

Bolalar ota-onasining qarovisiz qolganligi sabablari har bir ota-onaga nisbatan yakka tartibda aniqlanadi.

- Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) xizmat hududida adashgan, qarovsiz va nazoratsiz qoldirilgai, daydilik va tilamchilik qilib yurgan bola o‘chraganda fuqarolar yigini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axlokiy tarbiya masalalari buyicha maslaxatchi, yarashtirish komissiyasi, maktab mamuriyati yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslaxat va hamkorlikda: bolaga nisbatan ikkita ko‘shti ishtirokida alohida dalolatnoma tuziladi, u fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi raisi (oksokoli)

tomonidan imzolanadi;

- bola voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) xizmat xonasiga keltiriladi va uning shaxsi, ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoxud yaqin qarindoshlari, yashash va o‘qish joyini aniqlash choralari ko‘riladi;
- bolaning nima sababdan qarovsiz va nazoratsiz qolganligi sabab va sharoitlarini aniqlash choralari ko‘riladi;
- agarda bola butunlay ota-onasining qarovisiz qolgan bo‘lsa, tegishli qaror qabul qilingunga qadar, uning ota-onasi yoki oilasi bilan do‘stona aloqalarda bo‘lgan oilalarga bolani vaqtincha zarur tarzda parvarish qilish to‘g‘risida ulardan tilxat olgan holda, joylashtirish choralarini ko‘radi;
- bola uning shaxsini va yashash manzilini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan takdirda, 8 soat ichida, belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirgan holda, sog‘liqni saqlash muassasasi hamda ichki ishlar idoralarining Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtiriladi;
- markazga joylashtirilgan voyaga yetmaganlar to‘g‘risida 24 soat ichida hududiy shahar tuman prokuroriga xabar beriladi;
- ota-onasining qarovisiz qolgan bola haqida u aniqlangan kundan boshlab yetti kun mobaynida tegishli vasiylik va xomiylik organiga ma’lumotlar beriladi.

Oilada ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar bola tarbiyasiga, uning o‘ziga e’tiborsiz munosabatda bo‘lmashligi lozim. Bola hamma vaqt o‘zining ota-onasiga kerakli, qimmatli ekanligini his qilib yashashi lozim.

Bolaning o‘zini keraksiz deb his qilishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- a) bolani doimiy ravishda tanqid qilish, kamsitish, unga nisbatan umuman ijobiy baho bermaslik;
- b) bolaga ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan jismoniy-ruxiy faravonlik qo‘llanilishi;
- v) ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolaning mantiqan fikrashi, o‘z fikrini aytishiga to‘sinqinlik qilinishi;
- g) oila va mакtabda bolaning muvaffaqiyatsizliklari uchun doimo ayblanishi, u tushkunlikka tushgan vaqtda ma’naviy-ruxiy dalda berilmasligi;
- d) bolaning kayfiyati bilan xech kimning pedagogik-psixologik jihatdan hisoblashmasligi;
- ye) oila, maktab va tengdoshlar orasida boladagi fiziologik va psixologik kamchiliklarning ustidan kulish;
- j) ota-onasi tomonidan bolani moddiy jihatdan ta’minlamaslik, ya’ni bolaning tengdoshlari orasida yupun kiyinishi yoki och-nahor yurishi va boshq.

Tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirishda:

- voyaga yetmaganlarni, ularning ota-onalari yoki o‘rnini bosuvchi shaxslarni, shuningdek boshqa shaxslarni xizmat xonasiga chaqirtiradi;
- voyaga yetmagan farzandlari oldidagi burchini bajarmayotgan, ular tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni IIB raxbariyati tomonidan jamiyatga zid xatti-xarakat qilmaslik to‘g‘risida rasmiy ogoxlantirilishini tashkil qiladi;
- ijtimoiy yordamga muhtoj voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq hujjatlarni ko‘rib chiqadi;
- xizmat xonasiga keltirilgan voyaga yetmaganlarni zarurat bo‘lganda holislar ishtirokida shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazadi;
- voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olish borasida aholi turar joylari, ta’lim muassasalari va mexnat jamoalarida, qolaversa, ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib boradi;
- ma’muriy hududda joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar bilan kelishgan holda, shuningdek mehnat birjalari yordamida mexnat qilish yoshiga yetgan bolani uning sog‘ligiga

zarar qilmaydigan, qonun talablariga javob beradigan ish bilan ta'minlashda ko'maklashadi;

- voyaga yetmaganlar ishlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha davlat idoralari va jamoat tashkilotlariga takliflar kiritadi;

- voyaga yetmaganlarning transport vositalarida qarovsiz va nazoratsiz yurishlariga yul quymaslik maqsadida, temir yul va havo transporti xizmatchilari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- farzandlarini tarbiyalash borasida ota-onalik burchini bajarmayotgan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni huquqlaridan maxrum qilish, muomala layoqatini cheklash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtiradi va tegishli organlarga taqdim etadi;

- voyaga yetmaganlar qarovsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirishda e'tiborsizlikka yul quygan, belgilangan majburiyatlarini bajarmayotgan, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka shart-sharoitlar yaratib bergen mansabdor shaxslarni aniqlaydi va hujjatlarni hoqimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga taqdim qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya hamda Ichki ishlar vazirligi Hay'ati yigilishlariga voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazoratsizligi, huqukbuzarlik va jinoyatchiligi bilan

bog‘liq masalalar bo‘yicha hujjatlar tayyorlaydi;

- vasiylik va xomiylit organlariga qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy muhofazaga olishda ko‘maklashadi;
- voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazoratsizligi, hudud buzarlikniig oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar tashkil qiladi;
- voyaga yetmaganlar qarovsizligi, nazoratsizligi, huquqbuzarligi va jinoyatchiligining oldini olish borasida «O‘smir», «G‘amxurlik», «Oyna» kabi tadbirlarni o‘tkazadi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiklashtirish uchun mas’ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

Ichkilik, giyohvand yoki toksin moddalar istemol kslib mast bo‘lgaplar, kasallik belgilari ko‘rinib turgan ruxiy kasallar, jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yomda jipoyat sodir etganlar, uch yoshga to‘lmagan bolalar Markazga joylashtirilmaydilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi PIV, Toshkent shahar IBB, viloyatlar IIB huquqbuzarliklarning oldini olish boshqarmalari huzuridagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-

huquqiy yordam ko‘rsatish markazi keltirilgan adashgan, qarovsiz va nazoratsiz qoldirilgan, daydilik va tilamchilik qilib yurgan bolaga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish maqsadida:

- voyaga yetmaganlarning oilasidagi yashash va tarbiya sharoitlari, ularning xarakter va hususiyatlari, qiziqishlari, ishi va o‘qishini o‘zboshimchalik bilan tashlash, oiladan, o‘quv muassasasidan beruxsat ketish sabablari, huquqbuzarlik sodir etilishi uchun sabab bo‘luvchi korxona, muassasa va o‘quv yurtlari faoliyatidagi kamchiliklar, sodir etilgan jinoyatlar, ularda ishtirok etgan shaxslar, kidiruvdagi shaxslar, bedarak yuqolgan shaxslar, o‘g‘irlangan narsalarni sotish joylari, voyaga yetmaganlarni jinoiy yoki boshqa nojo‘ya xarakatlarga jalb qilinish hollari aniqlanadi;

- voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibda tarbiyaviy tadbirlar o‘tkaziladi, bunda yaxshi xislatlar va qiziqishlarni rivojlantirish, hulqidagi kamchiliklarni bartaraf qilish, o‘qish va mexnagga jalb qilinishiga alohida e’tibor beradi;

- Markazga yoshligi, kasalligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘zi haqida ma’lumotlarni aytib bera olmaydigan voyaga yetmaganlar keltirilgan bo‘lsa, u holda ushbu Markazning mansabdor shaxslari tomonidan o‘smirlarga oid bo‘lgan hujjatlar bo‘yicha, yakka tartibda profilaktik va tarbiyaviy ishlarni olib borish mobaynida shahar, tuman ichki ishlarni idoralariga, boshqa

tashkilot, korxona, muassasa va o‘quv yurtlariga so‘rov xati yuborish yuli bilan bu toifa o‘smirlarning shaxsini, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar haqidagi ma’lumotlarni aniqlash choralarini ko‘radi;

- voyaga yetmaganlarning o‘zboshimchalik bilan ketishi va huquqbuzarlik sodir etish imkoniyati bo‘lmagan sharoitlarda saqlanishini ta’minlaydi;

- intizomni va ichki tartib-koidalarni ko‘pol ravishda buzgan yoki ularga nisbatan qurilgan tarbiyaviy choralar yaxshi natija bermagan voyaga yetmaganlar bilan qo‘sishimcha ravishda ko‘chaytirilgan tartibda doimiy tarbiyaviy-nazorat ishlarini olib boradi;

- o‘smirni ushlab olish tafsilotlari, kaerdan va kaysi transport turida kelgani, yashash joyi, hayot kechirishga mablaglari va ularni topish manbalari hamda uning shaxsini aniqlash uchun axamiyatga ega bo‘lgan boshqa tafsilotlarni aniqlaydi va o‘zi haqidagi ma’lumotlarni yashirgan shaxslarga aloxida e’tibor qaratadi;

- 20 kun davomida shaxsi aniqlanmagan o‘smir Markaz joylashgan hududdagi sog‘likni saqlash muassasasiga yoshini aniqlash uchun sud tibbiy guvohlantirishga yuboriladi, Sud-tibbiy guvohlantirishning xulosasi olingandan so‘ng voyaga yetmagan tegishli bolalar muassasasiga joylashtiriladi;

- tegishli davlat idoralari, jamoat birlashmalari va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va huquqbuzarliklarning sabablari haqida ma’lumotlar yuboriladi;
- Markazdagi bolalar va o‘smirlarning umumiyligi huquqiy bilim saviyasini oshirishga, ularga ishga joylashish va hayotda o‘z o‘rinlarini topishlariga yordam beradi;
- sud-tibbiy guvohlantirish ko‘rigidan o‘tkazilgan shaxs 18 yoshga to‘lganligi aniqlanganda uni «Ish va yashash joyi noaniq shaxslarni reabilitatsiya qilish markazi»ga joylashtirish yoki unga nisbatan qonunda ko‘zda tutilgan boshqa choralarni qo‘llash masalasini hal qilish uchun Markaz joylashgan hududdagi ichki ishlar idorasining navbatchilik bo‘limiga darhol topshiriladi;
- voyaga yetmaganning shaxsi aniqlangandan keyin 24 soat mobaynida shahar, tuman ichki ishlar idorasiga, ota-onasiga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga hamda tegishli idoralar va jamoat tashkilotlariga uning saklanayotgan joyi to‘g‘risida ma’lumotlar yuboriladi;
- ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan aloqasi uzilgan voyaga yetmaganning hisob varaqasini u joylashadigan hududdagi ichki ishlar idoralarining pasport-viza bo‘linmalariga yuboriladi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi tomonidan yuqoridagi tadbirlarni amalga

oshirishda:

- bola Markazning mansabdor shaxslari tomonidan ikki nafar boshqa xodim yoki bir xil jinsdagi holislar ishtirokida shaxsiy ko‘rikdan o‘tkaziladi. Ko‘rik vaqtida aniqlangan pullar, kimmataho narsalar va boshqa buyumlar belgilangan tartibda tuzilgan dalolatnoma asosida Markazning mazkur buyumlarni saqlash uchun javobgar xodimiga topshiriladi va voyaga yetmaganlar ketish paytida ularga kaytarib beriladi;

Markazga joylashtirilgan barcha o‘smir va bolalar «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish Markaziga keltirilgan voyaga yetmaganlarni hisobga olish daftari»da ruyxatga olinadilar va ularga hisobga olish-statistik varaqasi to‘ldiriladi;

- Markazga joylashtirilgan voyaga yetmaganlarning har biriga «Hisobga olish yigma jildi» ochilib, unda Markazga joylashtirish uchun asos bo‘lgan hujjatlar to‘planadi;

- jinoyat sodir etgan shaxslar yoki jinoyatni ochish uchun axamiyatga ega bo‘lgan tafsilotlarning aniqlanishi haqidagi ma’lumotlar tegishli ichki ishlar idoralarining jinoyat qidiruv bulimlariga yuboriladi;

- yoshi va jinsiga karab, xar birida soni 20 nafardan ko‘p bo‘lмаган guruhlarga o‘smirlar taqsimlanadi va Markazning mansabdor shaxslari tomonidan nazorat qilinadi. Qizlar va o‘g‘il bolalar alohida yotoqxonalarga joylashtir qiladi;

- yozishmalar, uchrashuvlar, posilka va uzatmalar olishda bolalarning huquqdari buzilmasligi Markaz mansabdor shaxslari tomonidan tekshirilib turiladi, prokuratura idoralari nomiga yozilgan ariza va shikoyatlar tegishli prokurorlarga yuboriladi;
- saklanayotgan bolalar doimiy ravishda mansabdor shaxslar kuzatuvida Markaz xovlisiga sayrga, ommaviy-madaniy va sport tadbirlarida ishtirok etish uchun voyaga yetmaganlar Markazning tashqarisiga olib boriladi;
- Markazning boshlig‘i voyaga yetmaganlarga og‘zaki yoki buyruk bilan tashakkur bildirish, esdalik sovg‘a topshirish kabi rag‘batlantirish choralarini ko‘llashi mumkin;
- tunda jamiyat uchun xavfli harakatlar sodir qilgan yoki Markazdan qochishga uringan voyaga yetmaganlarni Markazning mas’ul navbatchisi (tarbiyachisi) Markazning boshlig‘i kelishiga qadar vaqtincha alohida xonaga o‘tqazishi mumkin;
- so‘rov bo‘lgan joylarda voyaga yetmaganning tashqi qiyofasi, kiyimi va uning yonidan chiqqan narsalarning ruyxati tuziladi, o‘smirni uch yoqlama suratga olish tashkil qilinadi va Markaz joylashgan hududdagi ichki ishlar idorasi jinoyat qidiruv bo‘limlariga yuboriladi;
- tegishli maxalliy bandlik idoralari bilan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish masalalari bo‘yicha hamkorlikda ish olib boriladi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi tomonidan voyaga yetmaganlarni joylashtirish maqsadida:

- ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslari mavjud bo‘lgan voyaga yetmaganlar, Markaz xodimlari kuzatuvida oilalariga yoki ularni olib ketish uchun kelgan ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga topshiriladi;
- voyaga yetmaganlarning iltimosiga ko‘ra, uni boshqa shaharlardagi qarindoshlarinikiga, avval bu qarindoshlarning hamda ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligini olib topshiriladi;
- pasportiga va doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan 16 yoshli va undan katta o‘smirlar Markaz boshlig‘ining yozma ruhsatiga ko‘ra ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar xuzuriga mustaqil ravishda yuborilishi mumkin. Bunda voyaga yetmagan shaxsning uyiga ketishdagi yo‘l harajatlari Markaz tomonidan beriladi. Bunday hollarda Markaz tegishli ichki ishlar idorasiga voyaga yetmaganni joylashadigan hududiga yetib olganligini tasdiqlash to‘g‘risida iltimos bilan so‘rov xati yuboradi;
- voyaga yetmaganning keljakdagi tarbiyasi uchun kerakli sharoit bo‘lmaganligi yoki boshqa sabablar tufayli ilgari yashagan joyiga qaytarish mumkin bo‘lmagan holda, Markazning mansabdor shaxslari yuzaga kelgan axvol to‘g‘risida o‘smirlarning yashash

joyidagi hokimlik huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyasiga, uning yashash joyi va ishga joylashtirish masalasini hal qilish uchun xabar beradi hamda vasiylik va homiylik idoralari bilan hamkorlikda o‘smirni joylashtirish choralarini ko‘radi;

- o‘quv-tarbiya, davolash yoki boshqa bolalar muassasalariga joylashtirish uchun yo‘llanma olingan yoki sudlarning davolash-tarbiyalash muassasasiga yuborish haqida qarorlari mavjud bo‘lgan o‘smirlar, ko‘rsatilgan bolalar muassasalariga Markaz xodimlari kuzatuvida jo‘natiladi;

- ota-onasi va yashash joyi noaniq bo‘lgan voyaga yetmaganlarni davolash-tarbiyalash muassasalariga tibbiy ma’lumotnama asosida jo‘natilayotganida Markaz xodimlari ularning shaxsiy yig‘ma jildi va tibbiy ma’lumotnama bilan birga yuboradi;

- Markaz boshlig‘i shaxsiy yig‘ma jildning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshiradi va o‘smirni davolash-tarbiyalash muassasasiga yetkazishni tashkil qiladi;

- davolash-tarbiyalash muassasasiga jo‘natilayotgan voyaga yetmaganning shaxsiy yig‘ma jildi Markazning o‘smirni kuzatib boradigan xodimiga muhrlangan qog‘oz haltada shaxsiy yig‘ma jild bo‘yicha ma’lumtnomalar bilan birga topshiriladi. Voyaga yetmagan davolash-tarbiyalash muassasasiga topshirilayotganida ushbu hujjatlar shu muassasaning rahbariyati

vakiliga taqdim etiladi;

- Markazda saqlanayotgan hamda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashovchi voyaga yetmaganlar yashash joylariga ularni olib ketgani kelgan ota-onalari, ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki o‘sha mintaqaning bunga vakolati bo‘lgan boshqa vakillari turli sabablarga ko‘ra o‘smirlarni olib ketishga kelmagan yoki rad etgan hollarda bu voyaga yetmaganlar voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish tranzit Markazining xodimlari kuzatuvida olib boriladi;

- Markazda saqlanayotgan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya, davolash-tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan boshqa bolalar muassasalaridan o‘zboshimchalik bilan ketib qolgan voyaga yetmaganlar voyaga yetmaganning ushlanayotgani haqida xabarni olgandan so‘ng 2 kun ichida Markazga yetib kelishi lozim bo‘lgan vakillar kuzatuvida, ko‘rsatilgan vakillar turli sabablarga ko‘ra kelmay qolgan hollarda esa o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar Markazning xodimlari tomonidan kuzatib boriladi hamda ota-onasiga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya, davolash-tarbiyalash hamda boshqa bolalar muassasalari vakillariga yoki boshqa markazlarga dalolatnoma orqali topshiriladi;

- Markazdan joylashadigan hududlarga jo‘natiladigan voyaga yetmaganlar tibbiy va sanitariya ko‘rigidan o‘tkazilib,

tibbiy hujjatlar bilan ta'minlanadilar hamda joylashtiriladigan manzilgacha tekin yo'l hujjatlari hamda belgilangan miqdorda ozid-ovqat va pul bilan ta'minlanadilar. Zarur bo'lgan paytlarda voyaga yetmaganlarga faslga qarab foydalanilgan, ammo kiyishga yaroqli ayrim kiyim-kechak va poyafzal bilan javob berilishi mumkin.

Tuman, shahar hokimliklari huzuridagi komissiyalar bolalar qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olish, farzandini qarovsiz va nazoratsiz qoldirgan, bolani tilamchilik va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni qilishga jalb qiluvchi ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish maqsadida:

- xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, madaniyat, ichki ishlar organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning bolalarni tarbiyalash, ularni joylashtirish, salomatliklarini mustaxkamlash, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbazarliklarining profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- tumanlar (shaharlar) huquqidagi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi, ularni keltirib chiqaruvchi sabablari va sharoitlarini bartaraf etish,

bolalarni joylashtirish, shuningdek ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

- tuman (shahar) komissiyalari o‘z bolalarini tarbiyalashga noto‘g‘ri munosabatda bo‘layotgan yoki komissiya chiqargan qarorning bajarilishiga to‘sqinlik qilayotgan ota-onalarga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash haqida, shuningdek bolalar huquqbuzarliklar qilishlari uchun sharoit yaratib berayotgai yoxud voyaga yetmaganlarni jinoyat va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilishga undayotgan yoki jalb etayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga taqdimnoma kiritadilar;

- komissiya ishlarni tayyorlash va ko‘rib chiqish paytida voyaga yetmaganning yoshini, mashg‘ulotini, yashab turgan va tarbiyalanayotgan sharoitini, huquqbuzarlik qilganligi faktini va uning mazmunini tasdiqlovchi ma’lumotlarni, huquqbuzarlik qilishga da’vat etgan katta yoshdagi kishilar va boshqa qatnashchilar bo‘lgan-bo‘lmaganligini, voyaga yetmaganlarga ilgari ta’sir ko‘rsatish chorasi qo‘llanilgan- qo‘llanilmaganligini aniqlashi zarur;

- komissiya voyaga yetmaganning huquqbuzarliklar sodir etishiga olib kelgan sabab va sharoitlarni tekshirib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rishi shart;

- komissiya zarur ma'lumot va hujjatlarni talab qilib olishi, shuningdek komissiyada ko'rيلayotgan masalalar yuzasidan izoxlar olish uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqirishi mumkin;
- mansabdor shaxslar va fuqarolar komissiya chaqirig'i bo'yicha uzursiz sabablar bilan kelmagan taqdirda, komissiya ishni ko'rib chiqishni qoldirishi, ularni ishlayotgan yoki o'kiyotgan joyidagi ma'muriyat, nodavlat notijorat tashkilotlar orqali keltirishni ta'minlash choralarini ko'rishi mumkin;
- ish ko'rishga tayyor deb topilgach, shu ishni tayyorlash vazifasi topshirilgan komissiya raisi, rais o'rinososari yoki a'zosi ish ko'rib chiqilishidan oldin voyaga yetmaganni, uning oganasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni, zarur hollarda esa ta'lim muassasalarining vakillarini ham barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi, komissiya majlisiga kimlarni chaqirish kerakligini aniqlab oladi hamda ish ko'rildigan vaqt va joyni belgilaydi;
- komissiya majlisi bo'ladigan kun prokurorga ma'lum qilinadi;
- voyaga yetmaganni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish;
- har bir aniq holat bo'yicha qabul qilingan ta'sir choralarini to'g'risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o'qish yoki

ish joyi bo‘yicha huquqbazarliklarning oldini olish bo‘linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining oldini olish ishlarini ta’minlash uchun ichki ishlar organlarining tegishli huquqiy organlarini xabardor qiladi;

- komissiya bolani tilamchilikka, fohishalik bilan shug‘ullanishga, qimor uyinlariga, spirtli ichimliklar ichishga, giyohvand yoki psixotrop moddalar bo‘lmagan, birok intellektual iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi moddalar yoki vositalarni iste’mol qilishga jalg qilgan ota-onada yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek tilamchilik, foxishabozlik, qimor uyinlari bilan shug‘ullangan, jamoat joylarida mast holda paydo bo‘lgan, spirtli ichimliklar, giyoxvand yoki psixotrop moddalar bo‘lmagan, biroq intellektual iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar va moddalar iste’mol qilgan 16 yoshga to‘lmagan o‘smirlarga nisbatan quyidagi ta’sir choralaridan birini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qiladi:

- a) jamoat tanbehi berish;
- b) ogohlantirib ko‘yish;
- v) O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan miqdorlarda jarima solish;
- g) favqulodda hollarda bolaning hayotiga yoki sog‘lig‘iga bevosita xavf solinganda ish sud tomonidan hal etilgungacha bolani vaqtincha ota-onasidan yoki ular vasiyligida bo‘lgan boshqa

shaxslardan olib qo‘yish to‘g‘risida vasiylik va homiylik organlariga taqdimnomalar kiritadi;

d) ota-onalarning muomala layoqatini cheklangan deb topish, ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum etish, bolalarni o‘z ota-onalaridan ularni ota-onalik huquqidan mahrum etmasdan olib ko‘yish, shuningdek bolalarning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lib, shu bolalari bilan birgalikda yashashlari mumkin emas deb topilgan taqdirda, ularni boshqa turar joy bermasdan ko‘chirib yuborish to‘g‘risida tuman (shahar) sudiga da’vo bilan murojaat qiladi;

- bolalarini tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmagan, o‘zlarining g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari bilan farzandlari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar komissiyaning qarori bilan ichki ishlar organlari profilaktik hisobiga olinadi.

Eslatma. Bolalarning nazoratsizligi, qarovsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish ularning farovonligi, rivojlanishi, huquq va manfaatlarini ta’minlashga asoslanishi lozim.

Komissiyaning majlisi uning tarkibining yarmidan ko‘pi hozir bo‘lgan taqdirda haqiqiy deb hisoblanadi.

Majlisda ishi ko‘rilayotgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, zarur hollarda esa o‘quv-tarbiya muassasalarining vakillari bo‘lishi shart.

X. BOLA IXTISOSLASHTIRILGAN O'QUV-TARBIYA MUASSASASIDAN YOKI TARBIYA KOLONIYASIDAN QAYTGANDA

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) bola ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasidan yoki tarbiya koloniyasidan qaytganda fuqarolar yig'ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, yarashtirish komissiyasi, maktab ma'muriyati yoki boshqa pedagoglar bilan **bamaslahat va hamkorlikda:**

- bolaning jamiyatga kayta ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida, uning ehtiyoji, qiziqishi, o'zi va hayoti bilan bog'liq muammolarni o'rgangan holda, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik, huquqiy yordam ko'rsatadi;
- bolaning oiladagi yashash va o'qish shart-sharoitini, yashash joyidagi ijtimoiy-ruhiy muhitni, oila a'zolarinig unga munosabatini yaxshilash bo'yicha kerakli maslahatlar beradi yoki amaliy yordam ko'rsatadi;
- bolaning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolarini hisobga olgan holda, u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o'tkazib turadi;
- bolaning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil

etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi biriktiriladi;

- ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan yoki tarbiya koloniyasidan kaytayotgan voyaga yetmaganlarning oilalariga o‘z vaqtida kaytishini nazorat qiladi;

- oilaning butunligini tiklash va oila bilan aloqa o‘rnatish maqsadida, mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan yoki tarbiya koloniyasidan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning qaytishi bo‘yicha oylalarga yordam dasturini ishlab chiqadilar;

- zarur holdarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixodogik va boshqa amaliy yordam ko‘rsatish hamda aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha vakolatli idoralarga murojaat qiladi.

Tuman (shahar) IIB voyaga yotmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik- larning profilaktikasn inspektori (Toshkent shahrida hudud profilaktika inspektori) yuqoridagi tadbirlarni amdlga oshirishda qo‘llanmada ko‘rsatilgan, shuningdek quyidagi choralarni qo‘radi:

- ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan kaytgan bolaga nisbazan hisob profilaktik varaqasi, jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan bolaga nisbatan hisob profilaktik ishi yuritadi;

- ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasi va tarbiya koloniyasidan ozod etilgan voyaga yetmaganlar ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlash maqsadida, voyaga yetmaganlar ishlari

bo‘yicha komissiya, ishga kirish va turmushini yulga qo‘yishga muhtoj bo‘lgan shaxsga nisbatan hokimlik huzuridagi ijtimoiy ko‘nikma markazi, diniy-ma’rifat va ma’naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi, yarashtirish komissiyasi va boshqa jamoat to‘zilmalari bilan hamkorlik qiladi;

-voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik, jinoyat va boshqa g‘ayri- ijtimoiy xatgi-harakatlar sodir qilmasliklari, salbiy guruhlar, diniy-ekstremistik va terroristak g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun mahallalarda va ta’lim muassasalarida jinoyatchilik, giyohvandlik, diniy-ekstremizm va terrorizm kabi illatlarning ayanchli oqibatlari mavzularida uchrashuvlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi.

Tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan yoki tarbiya koloniyasidan kaytgan bolaga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish, jamiyatga moslashishini ta’minalash maqsadida:

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish va ularning maishiy yashash sharoitini yaxshilashda yordam ko‘rsatish, davlat yordamiga muhtoj bo‘lgan boshqa voyaga yetmaganlarni joylashtirish shakllarini aniqlashda, shunishdek voyaga yetmaganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga doyr qonun

hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni amalga oshirishda ko‘maklashish;

- agarda voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan, yetim bolalar va ota-onas qarovisiz qolgan bolalar uchun muljallangan ta’lim muassasasidan chiqarilganidan keyin, uni ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar qonunda belgilangan tartibda onalik yoki vasiylik huquqdaridan mahrum etilganligi tufayli ular huzuriga yuborilishi mumkin bo‘lmasa, shuningdek uning avvalgi istiqomat joyiga kelishi bir qancha sabablarga ko‘ra (ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yuqligi, turmushi va mexnat qilishi hamda bundan keyin tarbiyalanishi uchun qulay sharoitlar yo‘qligi sababli) mumkin bo‘lmasa, ushbu muassasa joylashgan joyidagi tuman (shahar) komissiyasi voyaga yetmaganni mazkur shaxsning maishiy yashash sharoitini yaxshilash, uni o‘kish yoki ishga joylashtirish choratadbirlarini ko‘radi. Zarur hollarda tuman (shahar) komissiyasi voyaga yetmagan shaxsga vasiy, homiy tayinlash tug‘risidagi taqdimnomalar bilan tegishli tuman (shahar) hokimligiga murojaat qiladi;

- tarbiya koloniyasidan ozod bo‘lgan voyaga yetmagan istiqomat qilayotgan joydagi komissiya u 18 yoshga yetgungacha uni ishga yoki o‘kishga joylashtirish choralarini ko‘radi va uning axlokini nazorat qilib boradi;

- ozod bo‘lgan voyaga yetmaganning o‘z ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar huzuriga kaytishiga ularning yo‘qligi yoxud ota-onalik huquqidan yoki vasiylik huquqidan mahrum etilganligi munosabati bilan imkon bo‘lmasa, ozod bo‘lgan voyaga yetmaganning ilgari yashab kelgan joyidagi komissiya tarbiya koloniyasi ma’muriyatining taqdimnomasiga binoan o‘z ixtisosiga muvofik keladigan ishga yoki o‘qishga joylashtirish, shuningdek unga tegishli uy-joy-maishiy sharoitlar yaratib berish choralarini ko‘radi;

- voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkynliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish, ularning nazoratsizligi va huquqbazarliklari, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bilan bog‘lik masalalarni o‘rganadi va umumlashtiradi²⁴;

 **Eslatma.** Tarbiya koloniyasidan ozod bo‘lgan voyaga yetmagan shaxsni tarbiyaviy mulohazalar sababli ilgarigi istiqomat joyiga yuborish maqsadga muvofiq emas deb topilgan favqulodda hollarda, uni ishga joylashtirish koloniya ma’muriyatining taqdimi bilan shu tarbiya koloniyasi joylashgan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya tarbiya koloniyasidan ozod bo‘lgan voyaga yetmaganni u yordam so‘rab murojaat qilgan kundan boshlab 10 kun muddatdan kechiktirmay ishga yoki o‘ksshga joylashtirish masalasini hal qilishi shart²⁵.

²⁵O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasinnng 2011-yil 17-yanvardagi «Voyaga yetmaganlar ishlari buyycha

XI. BOLA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK SODIR ETGANDA

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida huquq profilaktika iispektori) bolani ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan vaqtda qo‘lga olganda yoki boshqa xizmatlar, jamoat tuzilmalari tomonidan keltirilganda, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishslash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi, maktab ma’muriyati, sinf rahbari yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslahat va hamkorlikda quyidagilarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 285-moddasida ko‘rsatilgan asoslар mavjud bo‘lganda, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan bola xizmat xonasida ushlab turiladi hamda bu xaqida ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risida bayonnomma to‘zilib, unda: bayonnomma to‘zilgan sana va joy, bayonnomma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma’lumotlar; uni ushlab turish vaqtি, joyi va uning asoslari ko‘rsatiladi. Bayonnomma uni tuzgan mansabdor shaxs va ushlab turilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ushlab turilgan shaxs

komissiyalar faoliyachiii takomshshashtirishga doir ko‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorining 13, 32, 33-bandlari.

O‘sha joyda. - 33-band.

bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo‘yiladi;

- voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarni albatta habardor qiladi¹;



- bolani so‘roq qilish orqali uning ma’muriy huquqbazarlikni sodir etish sabab va sharoitlarini, uning ruhiy-emotsional holatini va boshqa ish uchun ahamiyatli ma’lumotlarni aniqlash choralarini ko‘radi;

- bolaning ma’muriy huquqbazarlikni sodir etishida katta yoshdagilarning ta’siri, ya’ni bolaning ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoxud boshqa katta yoshdagi shaxslar tomonidan huquqbazarlik sodir etishga jalg etilganligi holatining bor yoki yuqligini aniqlaydi;

- bolaning ma’muriy huquqbazarlik sodir etganligini tasdiqlovchi guvohlar va jabrlanuvchilarini xizmat xonasiga chaqiradi hamda ish bo‘yicha ularni so‘roq qiladi;

- sodir etilgan huquqbazarlik yuzasidan zarur hujjatlar to‘planib, kuzatuv xati orqali sodir etilgan ma’muriy huquqbazarlikni ko‘rib chikishga vakolatli organ yoki mansabdor

shaxsga yuboradi;

- huquqbazarlik sodir etgan bola ichki ishlar idorasiga vaqtinchalik saqlash xibsxonasiga joylashtiriladi.

Voyaga yetmagan ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning yoki jabrlanuvchining manfaatlarini ular uchun mazkur shaxslarning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onalari, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiyalar ifodalashga haqlidirlar²⁶.

Eslatma. Bolalar tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklarni ko'rib chikish jarayonida unta nisbatan «buzg'unchi», «huquqbazar» yoki «boshlovchi huquqbazar» kabi atamalarni ishlatishdan tiyilish lozim. Negaki, bolaga nisbatan ushbu atamalarni ko'llash ko'p hollarda ularda barqaror ravishda nojuya yurish-turish tarzi rivojlanishi uchun ko'maklashadi.

Vaqtinchalik saqlash xibsxopasiga bolalar katta yoshdagilardan alohida tartibda saqlanadi, ularning kattalar bilap bir xonada saqlanishi qat'iyan taqiqlanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Ana shu shaxslar mazkur Kodeksning 61, 125, 126, 127, 128, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 138, 183, 184, 185, 194, 218, 220, 221- moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy

²⁶Birlashgan Millatlar Tashkilotining Voyaga yetmagan bolalar o'rtaida jinoyatchilikning oldini olishga o'rnililgan (Ar-Riyd) dasturiy prinsiplarining 1-moddasi.

huquqbazarliklarni sodir etgan taqdirda, ular umumiylasoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Sodir etilgan huquqbazarlik hususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (ushbu Kodeksning 194-modsasida nazarda tutilgan huquqbazarlikni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi shahar, tuman, shaharlardagi tuman komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, ushbu Kodeksning 61-modsasida nazarda tutilgan huquqbazarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim²⁷.

Tuman, shahar hokimliklari huzuridagi komissiyalar ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan bolaga nisbatan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish maqsadida:

- ishlarni tayyorlash va qarab chiqish paytida voyaga yetmagan shaxsning yoshi, mashg'uloti, yashab turgan va tarbiyalanayotgan sharoiti, huquqbazarlik qilganligi fakti va uning sodir etylganini tasdiqlovchi dalillarni, shuningdek huquqbazarlik qilishga da'vat etuvchi katta yoshdagi qishilar va boshqa qatnashchilar bo'lgan-bo'maganligini, voyaga yetmagan shaxslarga ilgari ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilmaganligini aniqlaydi;
- voyaga yetmagan shaxsning huquqbazarlik sodir

²⁷O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi: Rasmiy nashr, - T.: Adolat, 2010. - B. 9 (14-modda).

qilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni batafsil tekshirib, ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

- ishni qarab chiqish uchun zarur ma’lumot va hujjatlarni qilib oladi, shuningdek komissiyada qo‘riladigan masalalar yuzasidan izohlar olish uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqiradi;

- mansabdor shaxslar va fuqarolar komissiya chaqirig‘i bo‘yicha uzrsiz sabablar bilan kelmagan taqdirda, komissiya ishni qo‘rishni qoldirib, ularni o‘zлari ishlab yoki o‘kib turgan joydagi ma’muriyat, jamoat tashkilotlari orqali keltirish choralarini qo‘radi;

- ish ko‘rishga tayyor deb topilgach, shu ishni tayyorlash vazifasi topshirilgan komissiya raisi, rais o‘rinbosari yoki a’zosi ish qo‘rib chiqilishidan oldin voyaga yetmaganni, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni, zarur hollarda esa ta’lim muassasalarining vakillarini ham barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi, komissiya majlisiga kimlarni chaqirish kerakligi aniqlab oladi hamda ish qo‘riladigan vaqt va joyni belgilaydi;

- komissiya majlisi bo‘ladigan kun prokurorga ma’lum qilinadi;

- voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarliklar qilganligi to‘g‘risida tuman (shahar) komissiyasi qo‘rib chikishi lozim bo‘lgan materiallar komissiyaning raisi yoki uning o‘rinbosari tomonidan oldindan o‘rganib chiqiladi va ular:

- a) ishni komissiya majlisida qarab chiqish;
 - b) ishga oid materiallarni qo'shimcha ravishda tekshirish yoki tushgan arizalar, taqdimnomalar bo'yicha tekshirib chiqish;
 - v) ish komissiya majlisida ko'rilmunga qadar voyaga yetmagan shaxsga ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;
 - g) unchalik zararli bo'lмаган huquqbazarlik to'g'risidagi materiallarni, agar huquqbuzarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'linsa, voyaga yetmagan yashayotgan yoki o'kiyotgan joy bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yoki nodavlat notijorat tashkilotlarga topshirish hususida qaror qabul qiladi;
- voyaga yetmaganni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish;
- huquqbazarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarga quyidagi ta'sir choralaridan birini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilinadi:
- a) jamoat tanbexi berish;
 - b) ogohlantirib qo'yish;
 - v) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan miqdorlarda jarima solish;
- huquqbazarlik sodir etgan bolaga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilayotganida tuman (shaxdr) komissiyasi***

huquqbuzarlikning hususiyatini va sabablarini, voyaga yetmaganning yoshini va uning hayot sharoitlarini, uning huquqbuzarlik qilishda qay darajada ishtirok etganligini, shuningdek uning turmushidagi, ta’lim muassasasidagi va ishdagi xulq-atvorini albatta hisobga olishi lozim.

Eslatma. Qarovsiz qolgan bolalarning aksariyati nobop oilalar farzandlaridir. Ayrim oilalardagi qo‘pol munosabat, mактабда o‘qish ishtyoqining yo‘qolishi negizida ota-onasi bilan bola o‘rtasida ziddiyatning paydo bo‘lishi, qarindosh-urug‘lari va yaqinlari g‘amxurligidan mahrum bo‘lib, o‘zining keraksizligini sezishi ularning o‘z oilasiga begona bo‘lib qolishiga shart-sharoit yaratadi.

Voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya massasalariga yuborish komissyaning iltimosnomasi asosida chiqarilgan jinoiy ishlar bo‘yicha tuman (shahar) sudinipg ajrimi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

XII. BOLA JINOYAT SODIR ETGANDA

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida huquq profilaktika inspektori) bolani jinoyat sodir etganida qo‘lga olganda yoki boshqa xizmatlar, jamoat to‘zilmalari tomonidan keltirilganda, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar billi ishslash komissiyasi, diniy ma’rifat va manaviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi, mакtab ma’muriyati, sinf murabbiysi yoki boshqa

pedagoglar bilan bamaslahat va hamkorlikda quyidagilarni amalga oshiradi:

- jinoyat sodir etgan bola xizmat xonasida ushlab turiladi hamda bu haqda ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnomma to'zilib, unda: bayonnomma tuzilgan sana va joy, bayonnomma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uni ushlab turish



vaqt, joyi va uning asoslari qo'rsatiladi. Bayonnomma uni tuzgan mansabdar shaxs va ushlab turilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ushlab turilgan shaxs bayonnomani imzolashdan

bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo'yiladi;

- sodir etilgan jinoyat haqida tuman, shahar ichki ishlar idorasi navbatchilik qismiga va tegishli rahbarlarga zudlik bilan xabar beradi;

voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinadi²⁸;

- bolani so'roq qilish orqali uning jinoyatni sodir etish sabab va sharoitlarini, uning ruhiy-emotsional holatini va boshqa ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarni aniqlash choralar ko'rildi;

²⁸O'zbekiston Respublikasining Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi: Rasmiy nashr.-T.: Adolat, 2010.- 286-m.

- bolaning jinoyatni sodir etishida katta yoshdagilarning ta'siri, ya'ni bolaning ota-onasi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud boshqa katta yoshdagi shaxslar tomonidan jinoyat sodir etishga jalg etilganligi holatining bor yoki yo'qligi aniqlanadi;
- sodir etilgan jinoyat guvohlari va jabrlanuvchilarni ish bo'yicha so'roq qiladi;
- sodir etilgan jinoyat yuzasidan zarur hujjatlar va daliliy ashyolarni tezkor-tergov guruhiga taqdim etadi;
- ushlangan voyaga yetmagan shaxs militsiya muassasasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng ozodlikdan mahrum etish joyi hisoblanmagan xizmat binolarida saqlanadi yoki vaqtincha saqlash hibsxonasi kamerasiga joylashtiriladi hamda kattalardan alohida saqlanadi. Ayrim hollarda voyaga yetmaganlar saqlanayotgan kameralarda prokurorning ruxsati bilan kattalarni saqlab turishga yo'l qo'yiladi.

Eslatma. Bola jinoyat sodir etganda rasmiy organlar o'z faoliyatini, avvalo, voyaga yetmagan bolalar umumiy manfaatlarini hisobga olgan holda hamda holis va adolatli yondashuv asosida amalga oshirishi lozim²⁹.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar sodir etgan barcha jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov ichki ishlar organlarining tergovchilari tomonidan olib boriladi.

²⁹Birlashgan Millatlar Tashkilotining Voyaga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikniig oldini olishga o'rnatilgan (Ar-Riyd) dasturiy prinsiplarining 1-moddasi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini yuritish jarayonida surishtiruvchi va tergovchilar quyidagilarni amalga oshiradilar:

- dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha, ayblast, hukm qilish va reabilitatsiya uchun asoslardan tashqari, quyidagilarni isbotlashlari lozim:

- a) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug‘ilgan yili, oyi, kuni);
- b) voyaga yetmaganning shaxsiga xos hususiyatlar va uning salomatligi holati;
- v) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- g) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi;

- voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilishdan boshlab, surishtiruvchi yoki tergovchi ishda himoyachi ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘radi². Shu maqsadda voyaga yetmagan shaxsga va uning qonuniy vakiliga o‘zlari xohlagan himoyachini taklif etish huquqiga ega ekanligi tushuntiriladi. Agar himoyachi voyaga yetmagan shaxsning, uning qonuniy vakilining yoxud boshqa shaxslarning topshirig‘i yoki roziligi bilan chaqirilmagan bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ishda himoyachining

ishtirok etishini o‘z tashabbusi bilan ta’minlashga majbur;

- voyaga yetmagan shaxsga ayblov e’lon qilish vaqtida himoyachi bilan bir qatorda xohishiga ko‘ra voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakilining ishtirokini ham ta’minlaydi³;

- bola gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida so‘roq qilinganda himoyachining ishtirokini ta’minlaydi hamda ixtiyoriy ravishda bola qonuniy vakilining ishtirok etishga sharoit yaratadi;

voyaga yetmagan ayblanuvchini so‘roq qilishda ehtiyojdan kelib chiqib, yoki prokurorning ixtiyoriga ko‘ra pedagog yoki psixolog ishtirokini ta’minlaydi;

- quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat; shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi; garov; qamoqqa olish; voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostita olish uchun topshirish kabi ehtiyyot choralaridan birini qo‘llaydi:

a) sudlanuvchi bola surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va sudsan bo‘yin tovlashining oldini olish uchun;

b) uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish uchun;

v) uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun;

g) hukmning ijro etilishini ta’minlash maqsadida, jinoyatning xavfliligi tufayli u surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan

yashirinishi mumkin degan o‘rinli tahmin bo‘lganda;

d) bolani ekspertizadan o‘tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilishi kutilayotganda, shuningdek aqli noraso deb e’tirof etilgan yoki jinoyat sodir qilganidan so‘ng ruhiy kasallikka chalinib ular yashirinishining va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir qilishining oldini olish maqsadida;

ye) tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llash haqidagi sud ajrimi ijrosini ta’minlash maqsadida.

- voyaga yetmagan shaxsni ota-onasi, vasiylar, homiylar yoki bolalar muassasasi rahbarlarining qaroviga topshiradi. Bunda mazkur shaxslardan birontasi voyaga yetmaganning tergovchi, prokuror huzuriga va sudga o‘z vaqtida kelishini, shuningdek ayblanuvchining qonunda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishini ta’minlash mas’uliyatini yozma ravishda o‘z zimmasiga oladi;

- ehtiyyot choralarini qo‘llash uchun asoslar bo‘lgan taqdirda, voyaga yetmagan ayblanuvchini, sudlanuvchini turmush va tarbiyalanish sharoitiga ko‘ra ilgargi yashash joyida qoldirib bo‘lmasa, tergovchining prokuror sanksiya bergen qarori yoki sudning ajrimiga binoan bolalar muassasasiga joylashtirilishi mumkin;

voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat qonunda belgilangan asoslar bo‘lganda va unga besh yildan ortiq muddatga

ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e’lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo‘lishini boshqa ehtiyot choralari ta’minlay olmaydigan taqdirda ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qo‘llaniladi.

Bola jamiyat uchun katta xavf bo‘lmagan jinoyat sodir etganida tergovchi yoki prokuorning qarori yoxud sud ajrimi asosida javobgarlikdan ozod qilinganda, ish tuman (shahar) voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarda qo‘rib chiqiladi.

XIII. BOLA SALBIY MUHITDA O‘SIB ULG‘AYAYOTGANDA

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori (Toshkent shahrida huquq profilaktika inspektori) xizmat huquqida bola salbiy muhitda o‘sib ulg‘ayayotganini aniqlaganda, fuqarolar yig‘ini huzuridagi Yoshlar bilan ishslash komissiyasi, diniy ma’rifat va ma’naviy- axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi, yarashtirish komissiyasi, maktab ma’muriyati yoki boshqa pedagoglar bilan **bamaslahat va hamkorlikda:**

- oilada farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir qo‘rsatuvchi muhitning holatini, ota-onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoxud boshqa katta yoshdagilarni aniqlab, ularga nisbatan qonuniy

choralar qo‘rish ishlarini tashkil qiladi va olib boradi;

- bolaning salbiy muhitga tushib qolganligi va o‘sib ulg‘ayayotganligining sabab va sharoitlarini, uning sog‘lom turmush tarzi kechirishiga salbiy ta’sir qo‘rsatayotgan omillarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf qilish choralarini ko‘radi;

- voyaga yetmagan farzandlari oldidagi burchini bajarmayotgan, ular tarbiyasiga salbiy ta’sir qo‘rsatayotgan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni xizmat xonasiga chaqirtiradi hamda ularning IIB rahbariyati tomonidan jamiyatga zid xatti-harakat qilmaslik to‘g‘risida rasmiy ogohlantirilishini tashkil qiladi;

- farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir qo‘rsatuvchi ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni ichki ishlar idoralarining profilaktik hisobiga oladi, ya’ni ularga nisbatan hisob profilaktik varaqasi yuritadi hamda ular bilan doimiy ravishda yakka tartibdag‘i profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

-bolaning mahalla, maktab va ish joyida aloqa qiluvchi yaqin do‘stlari, tanish-bilishlari va tengdoshlari, ular bilan o‘zaro munosabatlarni aniqlaydi, agarda ular tomonidan bola g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilinayotgan bo‘lsa, ushbu salbiy holatlarni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko‘radi;

- farzandlari tarbiyasiga salbiy ta’sir qo‘rsatuvchi noqobil va notinch oilalarda tarbiyalanayotgan yoshlarni o‘rganish,


ularning o‘qishdan orqada qolmasliklariga yordam berish maqsadida mahalladagi faol yoshlarni biriktirib, jamoat ishlariga jalb etadi;

- mahalla, o‘quv muassasalari, xokimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarda o‘z vazifalarini yetarli darajada yoki umuman bajarmayotgan, farzandlari tarbiyasiga salbiy ta’sir qo‘rsatuvchi ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning xulq-atvorini muhokama etishni tashkillashtiradi hamda unda qatnashadi;

- mahalliy davlat organlariga, tashkilotlarga, voyaga yetmaganlar ishlaydigan yoki o‘qiydigan joylardagi ma’muriyatga hamda ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning ish joylariga voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklari to‘g‘risida axborot va xabarnomalar beradi, ularning sabab va sharoitlarini tezlikda bartaraf qilish bo‘yicha takliflar kiritadi.

Farzand

tarbiyasiga salbiy
ta’sir qo‘rsatuvchi
ota-onalarni
profilaktik hisobga
olish uchun
xokimliklar
huzuridagi voyaga



yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarining qarori asos bo‘ladi. Ularni profilaktik hisobdan chiqarish esa tuman, shahar IIB boshlig‘i ruxsati bilan amalga oshiriladi³⁰.

Tuman, shahar hokimliklari huzuridagi komissiyalar bola salbiy muhitda o‘sib ulg‘ayishining oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradilar:

ishlani qarab chiqish uchun zarur ma’lumot va hujjatlarni talab qilib oladi, shuningdek komissiyada ko‘riladigan masalalar yuzasidan izohlar olish uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqiradi;

mansabdor shaxslar va fuqarolar komissiya chaqirig‘i bo‘yicha uzrsiz sabablar bilan kelmagan taqdirda, komissiya ishni qo‘rishni qoldirib, ularni o‘zлari ishlab yoki o‘qib turgan joydagi ma’muriyat, jamoat tashkilotlari orqali keltirish choralarini ko‘radi;

- ish ko‘rishga tayyor deb topilgach, uni tayyorlash vazifasi topshirilgan komissiyaning raisi, rais o‘rnibosari yoki a’zosi ish qarab chiqilishidan oldin voyaga yetmagan shaxsni, uning ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarni, zarur hollarda esa tarbiya muassasalarining vakillarini barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi, komissiya majlisiga kimlarni chaqirish kerakligini belgilab oladi hamda ish qo‘riladigan vaqt va joyni aniqlaydi;

³⁰O‘zbekistonda «Ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlash dasturini rivojlaitirish» loyihasi materiallari,- T., 2008

- ishni ko‘rib chiqish asosida farzandini salbiy muhitda tarbiyalayotgan, ya’ni bolani tilamchilik, fohishalik, qimor uyinlari, spirtli ichimliklar ichish, giyohvand yoki psixotrop moddalar bo‘lmagan, biroq aqliy iroda faoliyatiga ta’sir qo‘rsatuvchi moddalar yoki vositalarni iste’mol qilishga jalb qilib kelayotgan ota-onalar yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan tegishli choralarни ko‘rishga qaror qabul qiladi:

- komissiya ota-onalarning muomala layoqatini cheklangan deb topish, ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum etish, bolalarni o‘z ota-onalaridan ularni ota-onalik huquqidan mahrum etmasdan olib qo‘yish, shuningdek bolalarning ota-onalari ota-onalik huquqidan maxrum qilingan bo‘lib, shu bolalari bilan birgalikda yashashlari mumkin emas deb topilgan taqdirda, ularni boshqa turar joy bermasdan ko‘chirib yuborish to‘g‘risida tuman (shahar) sudiga da’vo bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Shuni tan olib aytish kerakki, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik- bu, avvalo, biz, kattalarning ularni tarbiyalashda yo‘l qo‘ygan jiddiy xatolarimiz oqibatidir. Binobarin, shuning uchun ham ruhiy va ma’naviy jihatdan shaxs sifatida shakllanmay qolib, jinoyat sodir etgan yoshlarimizni jamiyatga qaytarish - avvalo, biz, ota-onalar va davlatning zimmasiga tushadi.

XIV. VOYAGA YETMAGANLAR BILAN YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKANI AMALGA OSHIRISHNING METODIK TALABLARI

Bolaning ehtiyojini o‘rganish va qondirish:

Qachonki bolaning ehtiyojlari qondirilsa, unda emotsional ehtiyoj va ta’sir rivojlanadi, o‘z aqliy ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi. Bolalarga ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini, mexr-muxabbat bera oladigan, sevish va do‘splashishni o‘rgatadigan insonlar kerak. Ota-onalik bolaning nafaqat ovqat, suv, kiyimga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, balki uning barcha ehtiyojlarini qondirishni talab etadi. Ota-onsa maqsadining samarasi muvaffaqiyatga erishish holati hisoblanadi, ya’ni bolaning barcha past darajadagi ehtiyojlari qondirilsa, u intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishi mumkin.

Psixolog *Abraham Maslou* ehtiyojlar ierarxiyasiga asoslangan inson motivatsiya nazariyasini taklif etgan. Maslou insonlar yuqori nomzodga erishishni xohlasalar qondirilishi shart bo‘lgan ma’lum bir ehtiyojlar to‘plamiga ega bo‘lishlari zarurligini isbotlagan.

Inson avvalo yuqori darajadagi ehtiyojga erishishdan oldin o‘zining past darajadagi ehtiyojini qondirish zarurligini taklif etadi. Bosh-pana, ovqat, uy-joy, havo, issiqlik, suv va uyqu kabi ehtiyojlari qondirilmaguncha, inson o‘zi va o‘z oilasi uchun

xavfsizlik, ximoya, barqarorlikni ta'minlay olmaydi.

Bolaning rivojlanishidagi ehtiyojlarni baholash parametrlari

Bolalar rivojlanishidagi ehtiyojlarni baholashning o'ziga xos tartibi Britaniya bolalar departamenti tomonidan ishlab chiqilgan va bugungi kunda ko'pgina davlatlarda vasiylik va xomiylik organlariga vakil bo'lgan muassasalar - bolalar uylarida, ta'lim muassasalarida tashkil etalayotgan ijtimoiy-psixologik yordam xizmatlarida qo'llanib kelinmoqda.

Bola ehtiyojlarining qondirilishi:

Sog'liq - bolaning sog'lom o'sishga bo'lgan ehtiyojlari. Bolaning o'sishi va rivojlanishi, jismoniy va aqliy holatini oladi. Bundan tashqari bolaning nasliy yoki turli xil boshqa ozor beruvchi omillarni ham inobatga olish zarur. Bola kasal bo'lib qolgan bo'lsa, zarur tibbiy muolajalarni odishi, mos va to'laqonli ovqatlanish tartibi, jismoniy talablar, zaruriyatda va yosh davrlarida oladigan vaksinatsiyalar, rivojlanishi mobaynida tibbiy ko'rikdan o'tib turishi, okulist va dentist ko'rigida bo'lib turishini baholashni o'z ichiga oladi. Yoshi kattaroq bo'lgan bolalarga sog'lig'iga ta'sir etuvchi omillar haqida suhbat uyushtirish orqali maslahatlar va zarur ma'lumolarni berish, shuningdek jinsiy rivojlanish, jinsiy madaniyat va ma'lumot, turli xil zararli vositalardan foydalanishning zararlari haqida to'xtalib o'tish zarur.

Ta’lim olish - bolaning kerakli bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlari. Bolaning tugilganidan boshlab, aqliy rivojlanishi bilan bog‘liq barcha sohalarni o‘z ichiga oladi. Boshqa bolalar bilan o‘ynash va muloqotga kirishish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarning mavjuddigini ham inobatga oladi, bunda kitoblardan foydalana olish imkoniyati, boshqa yoshga xos bo‘lgan egallanishi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning egallanganligi, yutuq yoki erishilgan natijalar bilan bog‘liq xis-tuyg‘ularni kechira olishi e’tiborga olinadi. Shuningdek, o‘z tarkibiga kattalarning bolaning ta’limiy faoliyati, uning taraqqiyoti va erishgan yutuqlariga nisbatan qiziqishlarini ham oladi. Oilada shunday kishi bo‘lishi kerakki, toki u bolaning xozirgi rivojlanish boskichidan kelib chikkan holda, ta’lim olishi bilan bog‘liq barcha ehtiyojlarining kondirilishiga e’tibor karata olein.

Hissiyotlarning rivojlanganligi va xulqning rivojlanishi - bu bolaning hissiyotlarini va xulqini rivojlantirish borasidagi ehtiyojlari. His-tuyg‘ular hamda xatti-harakatlar orqali bolaning namoyon etayotgan munosabati nazarda tutiladi. Dastlab, kattalarning yoki ota-onaning, yaqin insonlarning ishtirokidagi holati, keyin esa bola katta bo‘lib borgan sari notanish kishilarning oldida o‘zini tuta olishiga e’tibor qaratiladi. O‘z ichiga ilk bog‘langanlikning tabiatи va fazilatlarini, temperamentining alohida tafsilotlarini, turli xil o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha

olish imkoniyatini, stressga nisbatan javob reaksiyasi va o‘zini nazorat qila olish darajasini oladi.

Shaxs hususiyatlari, identifikatsiya (mansublik) - bolaning shaxsiy va identifikatsiya hususiyatlarga ega bo‘lish ehtiyojlari. Bolada shakllanayotgan shaxsiy individuallikka xos bo‘lgan va alohida bir butun hamda qadrli insonligini xis qila olishini o‘rganadi. U o‘z ichiga quyidagilarni oladi: bolaning o‘ziga va qobiliyatlariga nisbatan munosabatini, o‘z obrazini qanday tasavvur qilishi va o‘zini qanday baholashi, o‘ziga nisbatan ijobiy bahoning mavjudligi. Bunga shuningdek irkiy, diniy mansubliligini, jinsi va seksualligi, yoshi, chegaralangan imkoniyatlarini ham kiritish mumkin. Oilaga mansublilik hissi, oila, tengdoshlari guruhi va jamiyat tomonidan qabul qilinishi (madaniy mansublik ham) bilan bog‘liq his-tuygular shaxs hususiyatlari va identifikatsiyasiga kiradi.

Oila va ijtimoiy o‘zaro munosabatlar - bolaning oilaga va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ehtiyoji. Empatiyaning (xayrixdik, hamdardlik) hamda boshqa insonning o‘rniga qo‘ya olish imkoniyatining rivojlanishi. Ota-onalar yoki ular o‘rnini bosuvchi kishilar, aka- ukalar, opa-singillar, yaqin qarindoshlar, kuni-qo‘shnilar bilan muhim va hissiy iliq shaxslararo munosabatlarning yo‘liga quyilganligi, tengdoshlar hamda bola uchun qadrli bo‘lgan boshqa insonlar bilan do‘stona

munosabatlarni o‘rnatishining ahamiyatini, shuningdek o‘sha insonlarning bolaga nisbatan munosabatini xam inobatga olish

Ijtimoiy o‘zini namoyon qila olish - bolaning ijtimoiy jihatdan o‘zini namoyon qila olishga bo‘lgan ehtiyoji. O‘z ichiga tashqi ko‘rinish, xulq yoki kamchiliklar tashqi olam tomonidan qanday qabul qilayotganligi inobatga olinadi hamda u haqidagi tasavvurlar qay tarzda hosil bo‘layotganligiga ham e’tibor qaratiladi. Shuningdek bosh-kiyimining bolaning yoshi, jinsi, diniy e’tiqodiga mosligi, ozodalik va shaxsiy gigiena, kattalar yoki otanonalar (yo ular o‘rnini bosuvchi kishilar) maslahatiga e’tibor berishi yoki «qulq solishi», turli sharoitlarda o‘zini tuta bilishi kabilarni ham o‘z ichiga oladi.

O‘ziga xizmat qo‘rsata olishi ko‘nikmalari - bolaning o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan malaka va tajribalarga ega bo‘lish ehtiyoji. Bunda bolaning o‘sib borayotgan mustaqillikka monand ravishda amaliy, emotsional va muloqotchanlik ko‘nikmalarini o‘zlashtira olish qobiliyati va imkoniyatiga e’tibor qaratiladi. O‘z ichiga quyidagilarni oladi: kiyinish, ovkatni yeya olish kabi amaliy ko‘nikmalarni bajara olishi, o‘zida ishonch hosil qila olish imkoniyati, oiladan tashqarida, ya’ni ulardan alohida yashash davomida amaliy ko‘nikmalaridan foydalana olishiga nisbatan ishonchi, katta bolalar uchun esa oilasidan alohida o‘z hayotini qo‘rib yashay olish

imkoniyati.

Vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal qila olish ko‘nikmalarini egallay olish imkoniyatiga ham e’tibor qaratiladi. Alovida e’tiborni boladagi jismoniy imkoniyatlarining chegaralanganligi unga ta’sir ko‘rsatishi yoki o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligiga qaratilishi lozim.

XV. OTA-ONALARING BOLA EHTIYOJLARINI QONDIRA OLISH BILAN BOG‘LIQ IMKONIYATLARI

Ota-onalar bola ehtiyojlarini qondirish jarayonida quyidagilarni ta’minlashlari talab qilinadi:

- **asosiy e’tiborni bolaga qaratish** - bola to‘g‘risidagi asosiy e’tibor (asosiy ehtiyojlarining qondirilishi - ovkatlanish, yashash joyi, kiyim, tibbiy va stomatologik yordamning qo‘rsatilishi);

-xotirjamligini ta’minlash-bolaning bexavotirligi osoyishtalitini ta’minlash (bolaga xavf soluvchi omillar, oilaviy munosabatlarning havotirlilik hamda bolaning himoyaga muhtojlik darajasi va x.k.);

- **hissiy iliqlik** - oilaviy munosabatlar tavsifi, ota-ona va

farzand o‘rtasidagi hissiy bog‘langanlik, bolaning atrofdagi boshqa kishilar bilan hissiy bog‘lana olish imkoniyati va x k.

-hissiy bog‘langanlik va uning bola hayotidagi ahamiyati -

hissiy bog‘langanlik - bu masofadan va vaqtdan qat’i nazar, ikki inson o‘rtasidagi iliq munosabat.

Hissiy bog‘langanlik bizga tug‘ilgan zaxotiyok, shuningdek ilk yoshlik davrida beriladi va katta bo‘lgunimizcha ta’sir etadi. Agar ota- onalar bolalar tug‘ilgandan ularning ishonchlarini oqlamasalar, siz uni shundayligicha qabul qiling, bunda siz katta muammoni ko‘rmaysiz, faqat o‘zingiz boshqa odamlarga pand berib kuymasangiz bo‘ldi.

Hissiy bog‘langanlik bolani quyidagi rivojlanishi uchun kelgusida samarali asos buladi:

intellektual - bola yangi narsani o‘rganishda va izlanishda o‘ziga nisbatan ishonchni his etadi;

emotsional - «men buni o‘zimda xis etganman, agar ota-onamni g‘ashlab ketsam, ular kelishadi va men bilan birga bo‘lishadi. Ular menga vaqt ajratadilar, mexr-muxabbatlarini namoyon etadilar, men xaqimda qayguradilar va barcha ishlarim bilan: men nima qilyapman, nima haqida gapiryapman qiziqadilar»;

jismoniy - ovqat, kiyim-bosh, bosh-pana, bolaning barcha asosiy ehtiyojlari. Jismoniy xavotirsizlik va ota-onalar tomonidan ishonchlilik, ya’ni doimiy jismoniy ehtiyojni ta’minlaydi. Yosh

bolalar onasini vizual o‘rganguniga qadar hidiga va ovoziga e’tibor qaratadi;

ijtimoiy oilada, o‘z uyida nimalarga o‘rgangani jamiyatdagi xulqi va boshqalar bilan munosabatini anglatadi. Bolalar har kuni o‘z oilasida nimani ko‘rsa kuzatadi, taqlid qiladi va taxlil etadi. Jamoada o‘zini qanday tutish, ijtimoiy me’yor oilada shakllanadi. Shunday ekan, bola boishhang‘ich bilimlarni oilada egallaydi, keyinchalik bola bog‘chada, mакtabda, do‘stlari va boshqa oilalar bilan muloqot qilganda bilimlar rivojlanadi.

- **rivojlanish** - bolaning bilimga bo‘lgan qiziqishini qondirish va akliy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yarata olish;

- **xulqini boshqarish va me’yoriy talablar** - bola xulqini boshqara olish va uning xatti-harakatlarini chegaralay olish;

bir maromlilik - oilaviy munosabatlarning bir maromda kechishini ta’minlay olish.

Oila va tashqi muhit omillari

Bola ehtiyojlarini qondirishda oila va tashqi muhit omillarini hisobga olish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy to‘zilma - oila tarixi (shajara, oilaviy qadriyatlar, odatlar, oila tarkibi, oiladagi shaxslarning o‘zaro munosabati tuzilishi va hususiyati va xk).

Bolaning qarindoshlari va yaqinlari - qarindosh va yaqinlari hamda ularning bola ehtiyojini qondirishdagi o‘rni.

Uy-joy - oilaning yashash sharoiti, mulki, bola uchun alohida xonaning mavjudligi, shaxsiy buyumlari va xk.

Ish - oila a'zolarining ishlashi yoki bandligi haqidagi ma'lumotlar, bola bilan shug'ullana olish davomiyligi (kim ishlaydi, kun tartibi).

Daromad - oilaning daromadi, unda bolani kiyim-bosh, uyinchoqlar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, ko'shimcha ta'limni tashkillashtirish uchun imkoniyatning mavjudligi.

Ijtimoiy integratsiya - oilaning ijtimoiy aloqasi (ko'shnilar, tanishlar, bolaning muloqot doirasi va x k).

Mahalliy resurslar - yashash joyidagi resurslar (ta'lim, tibbiy, madaniy muassasalarning joylashuvi, transport va x k).

Mazkur ma'lumotlarni bir tizimga solish va ular asosida keyingi rejani to'zish bola bilan ishlovchi mutaxassisning mas'ulligi ostida amalga oshiriladi. Vasiylik va xomiylik organi bolaga qo'rsatilishi lozim bo'lgan yordam turi va huquqlarini ximoyalashning shakli hamda aralashuv darajasini belgilashda yuqorida keltirilgan o'rghanish natijasidagi ma'lumotlar to'plami asosida tayyorlangan xulosaga tayanadi.



Bolalarni o‘rganish davomida inobatga olinishi lozim bo‘lgan tamoyillar:

- bolalar manfaati;
- bolaning rivojlanish hususiyatiga asoslanish;
- imkoniyatlar birligini ta’minlash;
- bola va uning oila a’zblarini faol ishtirok etishga jalg qilish;
- oilaning nafaqat kuchli tomonlari, balki kuchsiz tomonlarning ham inobatga olinishi;
- tashqilotlararo hamkorlik;
- alohida bir tadbir sifatida emas, balki o‘zok davomiylilikka ega bo‘lgan jarayon tarzida qarash; aniq ma’lumotlarga suyanish.

Bolani samarali tarzda ximoyalash uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- birlamchi baholashni juda tezkorlik bilan olib borish;

- bir yula ish rejasini belgilab olish;
- birlamchi baholash va to‘liq o‘rganishni boshlash;
- ish olib borish rejasi muhokama qilinganidan 15 kun o‘tgach dastlabki yigilishni o‘tkazish;
- birlamchi baholash yakunlari bo‘yicha ishchi guruhning yigilishi birinchi yigilishdan keyin 10 kun o‘tgach o‘tkazish.

Birlamchi baholash yakunlari natijasida quyidagilar belgilanishi lozim:

- bolaning yordamga yoki vasiylikka, boshqa oilaga tarbiyaga berishga muhtojligi;
- asosiy muammolar;
- ehtiyojlar hamda oila va bolaning kuchli tomonlari;
- ota-onaning bola ehtiyojini qondira olishga qodirligi;
- qanday aralashuv va yordam turlari qo‘rsatilishi;
- yanada chuqurlashtirilgan va atroflicha baholashning zaruriyati.

Baholashning yakuniy natijasi quyidagilarda aks etishi lozim:

- bola ehtiyoji va bu ehtiyojlarning ota-onalar tomonidan o‘z oilalarida qondira olish imkoniyatlari taxlili;
- bola huquqlarini himoyalash maqsadida aralashuv zaruriyati haqida xulosa;
- mas’ul shaxs, tashkilotning tadbirlarni amalga oshirish

(qo‘rsatiladigan aniq yordam turlari) davomiyligi qo‘rsatilgan aniq harakat rejasi.

XVI. BOLA BILAN MULOQOT QILISH ETIKASI

Bola bilan muloqot qilish etikasi o‘ziga xos hususiyatlarga ega. Jumladan:

o‘smirning qay darajada ijtimoiylashganligini aniqlash uchun, u bilan faqatgina tabiiy, ishonchli munosabatlarni o‘rnatish zarur. O‘smirning hayotida ushbu munosabatlarning paydo bo‘lishiuning vaziyatining o‘zgarishiga, shu bilan bir qatorda uning resotsializatsiyasi - tiklanishi va boshqa aloqalarni ko‘rsatishi mumkin;

- suhbat olib borilayotgan bolaning hissiy holatini xis qila bilish. Masalan, bolaga jaroxat yetkazishi mumkin bo‘lgan shaklda ma’lumotni qabul qilmaslik;

- bolalarga nisbatan chuqur qiziqish va buning oqibati sifatida ular bilan munosabatda chidamlilik;

- bolaning intilishlari va xulq-atvorini xis qila bilish, o‘zining bolalikdagi tajribasiga tayangan xolda, uni o‘zidek qabul qila olish qobiliyati;

- bolalar va o‘smirlar xulqi bilan bog‘liq bilimlarga ega bo‘lish: bolaning rivojlanish hususiyatlari va qonuniyatlarini bilish; xulq-atvorning yosh va individual hususiyatlarini e’tiborga olish;

mos ijtimoiy ta'sir orqali harakterning turli qirralari va xulq-atvor modellarini taqqoslay olish maxorati;

- agar bolaning jamiyat bilan (oila, maktab va b.) aloqalari bo'zilgan bo'lsa, u bilan aloqa o'rnatishning birgina usuli - u yashayotgan muhit, ya'ni ko'cha.

Samarali muloqotni ta'minlovchi sifatlar

Ba'zi bir insoniy sifatlar samarali shaxslararo munosabatlarni qo'rishning zarur sharoitlaridan hisoblanadi. Zarur bo'lgan sifatlarning asosiy guruhini quyidagilar tashqil etadi:

- munosabatlardagi iliqlik;
- ochiqdilik;
- empatiya;
- o'zga kishilarga nisbatan ijobiy munosabat.

Bu shaxsiy sifatlar «malaka» bo'lib hisoblanmaydi, lekin malakalardan o'rinali va diqqat hamda e'tibor bilan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Ular kishilar orasidagi barcha munosabatlar zaminida mavjud bo'lib, o'z samaradorligiga ega bo'ladi. Shaxslararo munosabat malakalariga o'rgatish ishini shu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ustakovka va shaxsiy sifatlar tushunchasini muhokama qilmay turib boshlab bo'lmaydi.

Munosabatlardagi iliqlik

Kengyurak inson uchun o'zga kishilar bilan muloqotga kirishish sovuq munosabatli odamlarga qaraganda ancha

osonrovdır. Kengyurak deganda, odatda voyaga yepshaganga nisbatan iliq munosabatda bo‘ladigan va u uchun ishonch uyg‘ota oladigan qobiliyatli inson tushunshadi. “Munosabatlardagi iliqlik” tushunchasi keyingi tasdiqlarni ham o‘z ichiga oladi:

- muloqotdagi har ikki tomon huquqlarining tengligi;
- ayblovlarning mavjud emasligi;
- o‘zini ximoyalovchi pozitsiyadan xolilik;
- yaqinlik.

Munosabatlardagi iliklik — bu bir vaqtning o‘zida alohida turdagи tafakkur hamda malakadir. Ehtimol, bu xatto o‘zining oldida ham rostgo‘y bo‘lish hamda o‘zga kishilar bilan ochik muloqotga kirisha olishga tayyorlik qobiliyatida namoyon buluvchi malakadir. Shunday qilib, mazkur tushunchaning asosiy tarkibi bu o‘zga kishiga nisbatan tenghuquqli munosabatda bo‘lishdir).

Iliqlik doimo mutaxassisdan kelib qikishi kerak. Biroq bu munosabat qarama-qarshi tomondan ham xuddi shunday tarzdagi munosabat asosidagi javobga ega bo‘lishi kerak, degani emas. Agar biz biror-bir kishiga kasbiy yordamimizni qo‘rsatayotgan bo‘lsak, biz albatta ushbu insonga nisbatan doimo iliq munosabatni namoyon qilishimiz zarur. Biroq biz u odamdan ham shu tariqa munosabatni kutishimiz kerak emas. Do‘stona munosabatlardan farkli ravishda kasbiy munosabatlarda bu u darajada ahamiyatga ega bo‘lgan zaruriyatlardan emas.

Ochiqlik

Ochiklik bu ham kasbiy munosabatlarning e’tiborga molik tomonidir. Bu yerda barchasi aniq va tushunarli bo‘lsa kerak: biz yoki ruparamizda turgan odam bilan chin dildan qiziqishimiz yoki aksincha kizikmasligimiz mumkin. Kasbiy qiziqish doimo mutaxassisning shaxsiy qiziqishi doirasidan kelib chiqadi va uni yuzaki tarzda namoyon qilib bo‘lmaydi. O‘z kasbining xaqiqiy



ustasi har qanday vaqtda ham o‘z mijoziga haqida kayg‘urib, unga qo‘ldan kelganicha chin dildan yordam berishga harakat qiladi.

Bunday

munosabatlar rivojlanishiga yordam beruvchi turli vositalarni qo‘llab qo‘rish maqsadga muvofiqli. Hech narsa chin dildan munosabatda bo‘lishda halaqit bermaydi va u doimo insonning ongli tashabbusi hamda ma’suliyati ostida kechishi, shu bilan birga bo‘lib utayotgan xodisalar uchun javobgarlikni xis etishi lozim.

Ehtimol, ba’zi insonlar uchun samimiyligini bo‘lish bu u yoki bu kasbiy rolni yuqori darajadagi ustalik bilan bajarishdan iborat degan tushuncha bilan talqin etilishi mumkin. Boshqa tomondan, yaxshi mutaxassis bu hap bir sohada samimiyligini bilan o‘z faoliyatini

yurgizuvchi, lekin shu bilan birga bu hususiyatni o‘zga kishilar oldida ham samimiylilik bilan namoyish qila biluvchi shaxs hamdir.

Hayrixohlik

O‘zgalarni tushuna bilish uchun boshqa kishilarga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo‘la olish kobliyatiga ega bo‘lishimiz kerak. *Xayrixohlik bu o‘zga insonning idroki dunyosiga kira bilishdir, ya’ni uni o‘zga kishilar kay tarzda ko‘rayotgan bo‘lsa, shu tarzda ko‘ra olishdir.* **Kelish** (Kalisch, 1971) empatiya - xayrioxlikni «*o‘zga kishi his-tuygusini xatosiz ko‘ra bilish va his qila olish hamda shu insonga bu xaqida tushuntirib bera bilish qobiliyatidir*» deb tushuntiradi.

Hamdardlik bu xayrixoh bo‘lish degani emas. Xamdarlik o‘zga kishiga nisbatan «rahm» uygonishini nazarda tutadi. Ehtimol, bu inson o‘zi his etayotgan tuygularni o‘zga kishilarda qo‘rishga qaratilgandir. Inson o‘zga kishiga hamdard bo‘lganda, u o‘zini shu inson o‘rniga qo‘yishga harakat qiladi. Xayrixohlik bildirib esa, biz o‘zimizni shu inson o‘rnida his qilishga va u his etayotgan tuygularni tasavvur qila olishga harakat qilamiz.

Shartsiz ijobiy munosabat

Psixolog **Karl Rodjers** bu tushunchani «o‘zga insonlarning qadriyatlarini tan olish» yoki shunchaki uzga insonni «qabul qilish» sifatida tushuntiradi. Demak, taxmin etilishicha, *voyaga yetmagan bu o‘z qadriyatlariga ega bo‘lgan va o‘zining mavjudligi o‘zicha*

qadrli bo‘lgan insondir. «Shartsiz» so‘zi deganda asosan, insonga nisbatan alohida motivatsiya talab etilmaydigan tabiiy munosabat tushuniladi. Rodjersning ta’kidlashicha, mutaxassisda voyaga yetmaganga nisbatan paydo bo‘ladigan his-tuyg‘u qutilish yoki qandaydir talablar bilan shartli bo‘lib qolmasligi katta ahamiyatga ega.

Tabiiy munosabat xatar guruhidagi oila va bolalar bilan ishlovchi xodimlar uchun boshqa kasb egalariga qaraganda, shubhasiz katta ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatdir.

Shartsiz ijobiy munosabatga qanday qilib o‘rgatish mumkin?

Gohida o‘zga kishilarni muhokama qilmaslikda bizga o‘zimizni aslida qanday bo‘lsak shu tarzda qabul qilishga nisbatan intilishimiz yordam beradi. Xal qilinmagan ko‘pgina muammolarga ega bo‘lganimizda, hech kiyinchiliklarsiz va uta kuchli ingilish bilan biz o‘zga kishilarni muhokama qilamiz. *Shunisi ham aniqlik, biz o‘zimiz ega bo‘lgan muammolarimizni anglamagan hollarimizda ko‘pincha o‘zgalarni muhokama qilish va ayplashga intilamiz.* Shuning uchun *o‘zgalarga nisbatan shartsiz ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatishning asosiy yul va vositalaridan biri bu o‘zimizni anglay olish qobiliyatimizni rivojlantirishdir.* Biz o‘zimizning muammolarimizni to‘liq ravishda hal qila olmagan bir vaqtda mutaxassis sifatida o‘z muammolarimiz ustida uylab

qo‘rishimiz va o‘zimizga bu haqida hisob berib borishimiz ma’kul bo‘lar edi.

Shartsiz ijobiy munosabat bu uar qanday insonlarga xos bo‘lgan qadriyatlar tizimi va uning shaxsi hususiyatlari yorqin namoyon bo‘ladigan sifatlardandir. Tabiiyki biz barcha insonlarga bir xil darajada iliq va shartsiz ijobiy munosabatda bo‘la olmaymiz. Ba’zida shunday bo‘ladiki, ba’zi odamlar shunchaki bizga yokmaydilar. Gouida esa ijobiy munosabatni namoyon etish bilan samimiy bo‘lishga intilish orasida zidsiyat paydo bo‘lishi mumkin. Bir tomondan, o‘zimizning mavjud fe’l-atvorimizdan voz kechib, o‘zligimizni namoyon qila olish imkoniyatiga ega bo‘lmasak, ikkinchi tomondan, biz barcha insonlarga ham bir xil munosabatda bo‘la olmaymiz.

ESHITA BILISH

Tinglash - suhbатdoshga shunchaki o‘z e’tiborini qaratish emas, balki o‘zini haqiqatan ham uni tinglab, to‘g‘ri tushunayotganligingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish.

1. **Tinglayotgan bolaning ro‘parasiga utiring.** Bolani haqiqatan ham to‘liq tinglashingiz uchun, uni albatta qo‘rib turishingiz kerak. Bundan tashqari, u ham sizni qo‘rib turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro‘parasida o‘tirish maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi - hamsuhbatlar bir-birining yuzini qo‘rib turishi lozim.

2. Ochiq buling. Chalishtirib turilgan oyok va qullar o‘z o‘rnida himoyalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi, qulayrok o‘tirib olib, qul va oyoqlarni chalishtirmay, o‘zingizni erkin tutib o‘tirganingiz ma’kul.

3. **Tinglayotgan bolangiz tomoniga biroz og‘ib utirganingiz ma’kul.** Bunday uarakat, odatda, suubatdoshda sizning unta, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bulayotganingizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishingiz darajasidan dalolat beradi. Biroq bu o‘rinda sizning bu harakatingiz suhbatdoshda noqulaylik hissining paydo bo‘lishiga olib kelmasligiga ham e’tibor berish kerak.

4. **Nigohli aloqani saqlab kolishga harakat qiling.** Nigoh - bu shaxslararo muloqotning ahamiyatli vositalaridan. Shuning uchun doimo nigohingiz va qarashingizning suhbatdosh uchun yunaltirilganligi va uning qo‘rishi uchun qulayligiga e’tibor berish lozim.

5. **Bolani tinglab turib, o‘zingizni erkin tuting.** Tinglash - bu suhbatdoshingiz tomonidan aytilgan oxirgi so‘zlarni qaytarish degani emas. Sizga kerakli bo‘lgan eng asosiysi - bu faqatgina tinglash. O‘zini erkin tutayotgan tinglovchi o‘z o‘rnida o‘zga kishi nutqining haqiqatan ham tinglovchi tomonidan tinglanilayotganini xis etishi va bu bilan o‘zini yanada erkin xis etishiga yordam beradi.

Tinglay bilish doimo samarali maslahatlarning asosi bo‘lib

xizmat qiladi, shu jihatdan shaxslararo munosabatlarning ham. Agar mutaxassis o‘zida tinglay olish qobiliyatini rivojlantira olsa, u taqdirda boshqa muloqotchanlik malakalari rivojlanishi ham sodir bo‘ladi. Biroq suhbatdoshni tinglash vokea va xodisalarning mexaniq ketma-ketligini talab etmaydi. Biz nafaqat tinglashimiz, shu bilan birga, shunday tutishimiz lozimki, suhbatdosh o‘zini o‘zishini bajaruvchi profilaktika inspektori yoki mahalla maslahatchisi oldida emas, balki o‘zining yaqin kishisi oldida o‘tirgandek xis qila olishiga yordam berishimiz kerak.

«YAXSHI» VA «YOMON» TINGLOVCHI

Yaxshi tinglovchi belgilari

1. Bolani qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga harakat qiladi. Uni muhokama qilmaslikka va o‘zi istaganicha o‘zgartirmaslikka intiladi.
2. U bilan iliq, tabiiy va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘ladi.
3. O‘zining nutqi bilan zavqlanib o‘tirmasdan, suhbatdosh yoki bolaning fikrini diqqat bilan tinglaydi.
4. Bir vaqtning o‘zida bola haqida barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishga intilmaydi, balki samarali muloqot va ish uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlarning o‘zidan ham unumli foydalanishga harakat qiladi.
5. Bolaning xis-tuygusi va fikrlarini aks ettiradi.

6. Bolaning fikri bo‘linganda yoki vaqtinchalik sukunatga tushganda, shuningdek fikrlarini puxta uylab olish uchun imkon beradi.

Yomon tinglovchi belgilari

1. Noo‘rin savollar bilan bolaning fikrlarini bo‘laveradi.
2. Bolaning ehtiyojlariga e’tibor bermasdan, suhbat mavzusini o‘zgartiraveradi.
3. Bolaning nima haqida gapirayotganini tinglash o‘rniga, bola qanday qilib va nima deb javob berishini uayoutdi.
4. Hamkorlikda javob qidirish o‘rniga maslahatlar beradi.
5. Bolani boshqalarga o‘xshatgan tarzda vaziyatni umumlashtiradi.
6. Tezkor xulosalarga keladi va bolani fikri hamda nutqini doim bo‘lib turadi.
7. Bolani tinglashda davom etish o‘rniga, uning muammosini o‘zi hal qilishga harakat qiladi.
8. Bola bilan suhbatlashish vaqtida o‘zining muammolari va xulosalari haqida uayoutdi. Barcha paydo bulayotgan sukunatlarni to‘ldirishni o‘zining burchi deb biladi.
9. Bolaning savollariga befarqlik bilan qaraydi.
10. Bola muammosini o‘rinsiz yoki arzimagan narsa deb baholab, uning xis-tuygulariga e’tibor ham bermaydi.
11. Bolaning xis-tuygulariga e’tibor bermay, faqatgina uni

ovuntirishga harakat qiladi.

Bolalar bilan ishlaydigan xodim qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak:

- 1) insonlarning individual hususiyatlarini baholamaslik munosabatida bo‘lish;
- 2) bolalarning emotsional holatiga sezgirlik bilan yondashish;
- 3) egiluvchanlik (egiluvchanlikka mos qo‘rsatkich) - tusikdardan yengil o‘ta olish, bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengil utish;
- 4) emotsional bosiqlik va sabrlilik - boladagi xavotirlikni bartaraf eta olish, tinchlantirish, emotsional bosiqlik va sabrlilik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- 5) umumiy madaniyat hulqini qo‘llab-quvvatlash;
- 6) o‘z xulqi yunalishini oxirigacha joylashtira olish - vaziyatning konstruktivligini bolaga yuklamasdan, uning shaxs sifatida o‘sishiga to‘sqlik qilmasdan, berilgan mavzu bo‘yicha suhbatga qaytish;

o‘smir va bolalar xulqi soxasida bilimlarning mavjudligi - shaxs rivojlanishi va qonuniyatları, yosh va individual hususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash;

- 1) xayoti davomida shaxs bo‘lib rivojlanishi uchun imkoniyatlarni tan olish. Bola xayotidagi yuqoridagi vaziyat uning

tabiatdan yomonligi uchun emas, balki xayotiy vaziyatga mos kelmaydigan sharoitda usganligi sabablidir. Har qanday yoshda uning xulqi va harakter qirralarini ijobiy shakllantirish, saqlash imkoniyati mavjud. Bolaga chuqur qiziqishni namoyon etish;

- 2) bola xulqi va tayyorgarlik darajasiga sezgirlik o‘z bolalik tajribasiga murojaat etgan holda amalga oshirish;
- 3) bola huquqini hurmat qilish, o‘z muammolaridek hal etish va javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati;
- 4) o‘z tuyg‘ularini taxlil etishi, bilishi, belgilashi va salbiy tomonlarini kamsitmasdan balki ularni to‘g‘rilash lozim. Faqat shunday hollardagina u o‘z xulqini nazorat xila oladi;
- 5) o‘zini o‘zi anglashni o‘stirish. Mutaxassis o‘zi haqida qancha ko‘p bilsa, u kim bilan ishlayotganligini yaxshi biladi;
- 6) kuchli o‘xshashlik - o‘z ichki pozitsiyasiga ega bo‘lish, boshqa insonlarga nisbatan oddiy umid aks ettirish.

SAVOLLAR

Shubxasiz, suhbat o‘tkazayotganda bolaga savollar berish katta ahamiyatga ega, lekin savollarni to‘zayotgavda juda ehtiyyotkor bo‘lishimiz kerak. Savollar aniqlovchi harakterga egadir. Biz esa ayni vaqtda bola jim bo‘lib qolmasligi va o‘zini so‘rovga tutilayotgan sudlanuvchidek xis qilmasligini istaymiz. Savollar u yoki bu darajada oydinlashtiruvchi bo‘lishi mumkin. Bu uni xay tarzda berishimizga boglix.

Ochiq savollar - keng va atroflicha javob berilishini nazarda tutadi.

Yopiq savollar esa «Ha», «Yo‘q» deyilishi yoki raqam ko‘rsatilishini nazarda tutuvchi savollardir.

Savollarning boshqa uchinchi turi ham mavjudki, bunda - «nima uchun?» kabi savol bilan murojaat etishimiz tushuniladi. Ochiq savollar bolani dialogni davom ettirishga yo‘naltiradi. Bolaga suhbatning boshlang‘ich qismini nazorat qilish imkoniyatini berishimiz maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan ochiq savollarni ko‘proq berib, yopiq savollarni chegaralashimiz katta ahamiyatga ega.

Yopiq savollar:

Yopiq savol - bu bir xil murakkablikka ega bo‘lgan variant javoblarni taqozo etadigan savol turi («xa», «yuq» yoki boshqa turdagи javob). Yoki bo‘lmasa, bu shunday savolki, maslahatchining o‘zi savol bera turib, oldindan javob mazmunini anglab turadi. Yopiq savollarga quyidagilarni misol tariqasida ko‘rsatishimiz mumkin: (Siz kaerda uqiysiz? Ota-onangiz bormi? Ota-onangiz bilan bir uyda yashaysizmi?

Biroq suhbat davomida yopiq turdagи savollardap xaddan ziyod ko‘p foydalanish suhbatni suroqqa aylantirib yuborishi mumkin! Yopiq savollar, odatda, bolaning shaxsiy tashabbuskorligi yuqolishiga va buning natijasida o‘zi haqida gapirib berish

istagini sunishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, barcha yuzaga kelayotgan munosabatlar yuzasidan ma'suliyat deyarli bola zimmasiga yuklatiladi.

Odatda, bunday savollarga javoblar bitta so'zdan iborat bo'ladi va orada jimlik hosil bo'ladi. Chunki bunda bola keyingi savolni kutadi. Bunday savollar «Sizchi...», «Sizmisiz?»,

«Siz qilayapsizmi?», «Qancha?» so'zlaridan boshlanadi.

Masalan,

«Siz o'z ota-onangizga nimalar bo'lib o'ttanini aytib berdingizmi?» yoki «Aka va singillaringiz nechta?».

Bu tarzdagi savollar bolaga yordam bera olmaydi. Aksincha, ular «suhbat eshigini» ochish o'rniga, yopib qo'yadi. Bola bilan suhbatlasha turib, biz uni o'zini o'rganishga undaymiz. Agar biz bolaning o'zini o'rgana olishiga ishonch hosil qila olsak, u o'z tanlovi va qarorini his qila olishi ham lozim. Natijada harakat qilish va qandaydir o'zgartirishlar kiritsh haqidagi oxirgi qarorni o'zi chiqarishi kerak. Buni o'zi istashi lozim. Bolani bunday qarorni chiqarishga olib keluvchi yulni bola ijodiy yondoshgan tarzda, o'zining bosib o'tishi kerak¹.

Ochiq savollar:

Ochiq savollar - murakkablikka ega bo'lgan javob berilishini emas, balki mazmunli javobni nazarda tutuvchi savol turi. Suhbat olib boruvchiga bu vaziyatda biroz qiyin bo'lishi mumkin. Chunki

u beriladigan javobni oldindan ko‘ra bilmaydi. Masalan: «Bu voqea sodir bo‘lgan vaqtda, siz nima bilan band edingiz? Shu paytda Siz nimani his etdingiz? Xozir esa nima deb uylaysiz? Sizningcha, endi nima sodir bo‘lishi mumkin?» Odatda, bunday savollar «Nima...», «...qilish mumkinmi?», «...qila olmaysizmi...» yoki «Qanday qilib...» kabi so‘zlar bilan boshlanadi.

Shuning uchun «Bo‘sh vaqtingizni qanday o‘tkazasiz?» yoki «O‘zingizning oilangiz xaqida gapirib bera olmaysizmi?» kabi savollar ochiq turdag'i savollarga yaxshi misol bo‘la oladi. Albatta, berilayotgan savol muhokama qilinayotgan mavzu doirasida bo‘lishi kerak. Shuning uchun agar bola o‘zini yolgiz his qilayotgani, zerikayotgani yoki o‘zini bosim ostidagvdek his etayotganini aytsa, unday holda «Bo‘sh vaqtingizni qanday o‘tkazasiz?» kabi savolni berish o‘rinlidir.

Biroq bola onasining o‘limidan so‘ng kechayotgan aziyati xida gapirayotgan bo‘lsa, bunday holda bu tariqa savol berishning o‘rni emas.

Ochiq savollar bolaga o‘z fikrini aniqrok bayon etishga yoki davom ettirishga, shuningdek u yoki bu muammoga kirishishiga yordam beradi. Suhbat davomida bu tarzdagi savollar yopik turdag'i savollardan ko‘ra ancha foydalidir. Ular batafsil va har tomonlama tushuntiruvchi javoblarni yuzaga keltiradi va yopik turdag'i savollardan farqli o‘laroq, baholovchi va talqin etuvchi

munosabatdagi javoblar sonini keskin kamaytiradi. Birok mutaxassis ochik savollar bera turib, intervensiya tavsifiga xam e'tibor berishi va rioya qilishi zarur. Masalan, u bolaning shaxsiyati yoki yokimsiz xotiralarini ko'zg'atuvchi savollar sonini juda ham ko'paytirib yuborishi mumkin. Har bir beriladigan savolning o'z o'rni va qo'lay vaziyati bor.

Bola bilan o'zaro muloqot davomida yuzaga keladigan savollar turli maqsadlarni o'z ichiga olishi mumkin. Asosiy savollar tarzida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

Aniqlashtirish: «Kechirasiz, aytishingiz bo'yicha, siz uydan ketishingiz kerak, shundaymi, yoki hali oxirgi qarorga kelmadingizmi, ishonchingiz komil emasmi?»; «Keyin siz nima dedingiz?»

Bolani gapirib berayotganlarini davom ettirishga *stimullashtirish*. «Bu haqda yana ham batafsilroq gapirib bera olmaysizmi?»; «Bunday vaziyatda Sizda qanday hislar paydo bo'ladi?»

Qo'shimcha ma'lumotni olish: “Oilada nechta farzandsiz?”,

“Darslar tugagach nima bilan shug'ullanásiz?”

Tadqiq qilish: «Yana nima bo'lib o'tdi?»

XVII. BOLA BILAN ISHLASHDA TAQIQLANGAN USULLAR

Suhbat vaqtida nimadan qochish kerak?

Bolaga nisbatan shaxsiy murojaatning yukligi. Bu juda katta masofani, emotsiyal sovuq aloqani talab etadi.

1. **Bolaga ismi bilan murojaat eting.**

2. **Bolaga maxsus va tushunarsiz so‘zlarni qo‘llash.** Bola bilan suhbatda tushunarli so‘zlarni izoxlarsiz qo‘llash ular orasidagi ishonchli muloqotni bo‘zilishiga olib keladi. Bolaga tushunarli tilda gapiring!

3. **Kasbiy o‘zaro ta’sirdan maishiyga o‘tish.** Bola va mutaxassis o‘zaro munosabatida inson sifatida emas, prfessional sifatida tahlil qilish. Aks holda, maslahat moxiyatiga ko‘ra «oshxonadagi suhbatlarga» aylanadi. *Kasbiy ta’sirlanipg*

4. **Boshqa insonlar fikrini kayta qo‘rib chiqish.** Maslahatli aloqa maqsadi - inson fikrini, uning hal qilish yullari mantig‘ini aniqlash. *Bu haqda boshqa insonlar nima deb uylashi uatsida boladan suramang, uning pozitsiyasiii anislang.*

5. **Muammoni xaddan tashqari tez aniqlash.** *Sabrli bo‘lish.*

6. **Bola qadriyatlarini qabul silmaslik.** Qadriyatlarini qabul qilish ularni so‘zsyu kullab-kuvvatlashni anglatmaydi. Birok mutaxassis bola hayotida qadriyatlar asosiy o‘rni egallashi va uning shaxsiy moxiyatini anglatishini tushunadi. *Bolaga uning*

qadriyatlar tizimi halaqit beradimi yusmi, uni o‘zi hal etishi zarur.

7. **Yuqoridan qarash.** Mutaxassis o‘zini «yuqori inson» sifatida tutayotgandek ko‘rinadi - hamma narsani biladigan va barcha narsaga qodirdek. *Bola bilan teng pozitsiyada bo‘ling.*

Kuy i dat takiklangan usullarni farklash:

Qaror qabul qilish - fikr bildirish.

Fikr bildirish suhbatdoshning o‘zini o‘zi baholashini pasaytiradi.

Fikr bildirish - inkor etish.

1) Qaror qabul qilish - fikr bildirish - qachonki mutaxassis bolaga nisbatan qaror qabul qilishda ishonchsizlik namoyon etsa va u uchun mustaqil o‘zi qaror qabul qilish. Bu quyidagi ko‘rinishda:

Buyrug‘, formonni ijri etish. Mutaxassis bolaga nima qilishi haqida buyrusq beradi. U bola irodasini cho‘ktiradi, uni mustaqil harakat qilish, tanlash imkoniyatidan mahrum etadi.

Tahdid, ogoxlantirish, ishontirish. Mutaxassis bolani ogoxlantirgan holda, uning harakatlari oqibati nima bo‘lishi xalqda hokimlikni qo‘llaydi.

O‘rgatish, ahloqlashtirish. Mutaxassis bolaga kdnday yul tutishni, o‘z axlokiy prinsiplarini kqo‘llashni majburlaydi.

Qaror kabul kilishda takliflar, maakshatlar. Mutaxassis bolaning muammolarini hal qilish haqida unta gapirish.

2) Suhbatdoshning uchini uchi baholashini pasaytiruvchi fikrlar:

Ayblast, tansid, muhokama. Mutaxassis bolani salbiy baholashi va qabul qilishi.

Haddan zyod maqtash, ma'qo'llash. Mutaxassis tomonidan rag'batlantirish yoki ikki yuzlamachilik bilan manipulyatsiya qilish.

Uyaltirishga intilish, mazax qilish. Ajoyib vaziyatni yuritayotgandek ko'rsatish va uni «tasniflash» uchun bolani tentak qilib ko'rsatishga majbur etish.

Tashxis kuiish. Mutaxassis bolaga uning motivi nima ekanligini yoki bir qanchasini sanab utish.

Ishontirish, tinchlaptirish. Mutaxassis tomonidan bola holatini yaxshilash, biroq bu usullar u faqat nomigagina «aytishi» mumkin bo'lgan, bolaning kayg'urishi va samimiy yoki xakikiy tuyg'usini inkor etgan holda, uning holatini yaxshilashga harakat qilish.

So'rash va izlanish. Mutaxassis ma'lumotlarni yig'ishda bola gapirishni hoxlamagan yoki gapirishga tayyor emas holatlarida «tazyik» o'tkazish; uni ma'lumot yetkazishiga majburlash; bolaga muammosini anglashiga yordam berish yoki o'z qarorini qabul qilishni ishlab chikishiga yordam berish o'rniga o'zi qaror qabul qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Hukuqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2014 yil 14 maydagi qonuni. <http://lex.uz.>;
2. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2010 yil 29 sentyabrdagi qonuni. <http://lex.uz.>;
3. O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2008 yil 17 apreldagi qonuni <http://lex.uz.>;
4. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 2000 15 dekabrdagi qonun. <http://lex.uz.>;
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2018 yil 30 iyuldagи qonuni I. <http://lex.uz.>;
6. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oida davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2016 yil 14 sentyabrdagi qonuni. <http://lex.uz.>;
7. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himo qilish to‘g‘risida”gi 2017 yil 14 maydagi qonuni. <http://lex.uz.>;
8. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2010 yil 29 sentyabrdagi Qonun // URL: <http://lex.uz.>;
9. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarinnsh kafolatlari to‘g‘risidagi qonunining 5-moddasi // O‘zbekiston Respublikasining konun xujjatlari to‘plami, T.,2008,-№ 1-2- 1-y.; <http://lex.uz.>;
10. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston

Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida» qonunining 6-moddasi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining axboratnomasi - T., 1992. - № 2. - 80-M.;

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 17 yanvardagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komnssiyalar faoliyatini takomillashtirish(doir ko‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriniig 13, 26, 32, 33-bandlari.;

12. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi: Rasmiy nashr, - T.: Adolat, 2010. - Yo. 9 (14-modda) .- 286-m.

13. O‘zbekistonda “Ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlash dasturini rivojlaitirish” loyihasi materiallari,- T., 2008;

14. Abdujalilov A.A Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqbazarligi hamda jinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlari // Ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhtoj bolalarning huquqiy huquqiy holati ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T., 2006.-B.187.;

15. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Voyaga yetmagan bolalar urtasida jinoyatchilikning oldiii olishga o‘rnitilgan (Ar-Riyd) dasturiy prinsiplarining 1-Moddasi.;

16. Zakon Respublike Belarus ot 4 yanvarya 2014g. 42122-3 «Ob osnovax deyatelnosti no profilaktike pravonarusheniy» Sbornik zakonov o profilaktike pravonarusheniy stran Sodrujestva Nezavisimyx Gosudarstv / Sost.: A.S.Tursunov, I.Yu.Fazilov, S.B.Xo‘jaqulov. T., 2018. — S.14-37.;

17. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. - T., 1999. - 262 b.;

18. Ismailov I. Balog‘atga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi Kriminologiya. Maxsus kism: Darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: 2015. – B. 15-16.;

19. Ismailov I. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish. O‘quv-amaliy qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. -T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011.-b 179.;
20. Montesk’e Sh. Izbrannve proizvideniya. – M., 1955, B. 231.;
21. M.Bekkariya. Oprestupleniyaxv i nakazaniyax. 1889. (<https://www.books.google.co.uz> 17.08.2020).;
22. Minkovskiy G.M., Tuzov A.P. Profilaktika pravonarusheniy sred nesovershennoletnix. - K.; Politizdat' Ukraina, 1987. — S 86.;
23. Federal’niy Zakon Rossiyskoy Federatsii 23 iyunya 2016 g. X2182-FZ. "Ob osnovax sistemy profilaktiki pravonarusheniy B Rossiyskoy Federatsii" I Sbornik zakonov o profilaktike pravonarusheniy stran Sodrujestva Nezavisimyx Gosudarstv { Sost.: A.S.Tursunov, I.Yu.Fazilov, S.B.Xo‘jaqulov. -T., 2018. - C. 55.;
24. Eshnazarov M.J. “Xuquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi” tushunchasining mazmuni to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi IIV Axborotnomasi. — 2019. - Ne 1. B. 49-50.;
25. Xo‘jaqulov S.B Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish: Monografiya /Mas’ul muxarrir yu.f.d., dos. I.Yu.Fazilov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. -186 b. B 52.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Balog‘at yoshiga yetmagan yoshlар bilan yakka tartibda profilaktik ishlarni tashkil etishning metodologik jihatlari.....	5
II.O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq yakka tartibdagi profilaktika ishini tashril etish yuzasidan tavsiyalar.....	16
III. Bola vaqtini behuda va mazmunsiz o‘tkazayotganda.....	25
IV.Bola surunkali ravishda maktabga borishdan bo‘yin tovlaganda.....	32
V. Bola chekishni boshlasa.....	36
VI. Bola ichkilikbozlikka berilganda.....	43
VII. Bola giyohvandlikka berilganda.....	54
VIII. Bola salbiy guruqlar, diniy-ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolganda.....	60
IX. Bola qarovsiz va narozatsiz qolganda.....	67
X. Bola ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan yoki tarbiya koloniyasidan qaytganda.....	91
XI. Bola ma’muriy huquqbazarlik sodir etganda.....	96
XII. Bola jinoyat sodir egganda.....	102
XIII. Bola salbiy muhitda o‘sib ulg‘ayayotganda.....	108
XIV. Voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirishning metodik talablari.....	113
XV. Ota-onalarning bola ehtiyojlarini qondira olish bilan bog‘liq imkoniyatlari.....	118
XVI. Bola bilan muloqot qilish etikasi.....	124
XVII. Bola bilan ishlashda taqiqlangan usullar.....	140
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	143